



RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR RIVOJI KATTA NATIJALAR UCHUN KENG IMKONIYATDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-iyul kuni raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va telekommunikatsiya sohasidagi rejalar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivoji uchun yaratilgan keng imkoniyatlar katta natijalar olib keldi. IT-park rezidentlari 2 ming 800 dan oshdi, xorijiy kompaniyalar 752 taga yetdi. Bu sohada 40 ming nafar yoshlar yuqori daromad topyapti.

Oxirgi 5 yilda soha eksporti 170 million dollardan 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Internet tezligi 7 barobar, mobil internet esa 4,5 barobar oshdi. O‘tgan yili sohadagi startaplarga 70 million dollar venchur investitsiya kiritildi.

Bularning natijasida “Global startaplar indeksi” reytingida O‘zbekiston 12 pog‘ona yuqorilab, “TOP-100”likka kirdi. O‘tgan yili “Sun’iy intellektga tayyorlik” xalqaro indeksida yurtimiz 17 pog‘ona ko‘tarilib, Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston telekommunikatsiya sohasining o‘shish sur‘atlari bo‘yicha MDH mamlakatlari reytingida birinchi o‘rinni egalladi.

Bunday ishlar izchil davom ettirilmog‘da. Xususan, kelgusi yilda davlat xizmatlarini raqamlashtirishni 70 foizga, IT xizmatlari miqdorini 100 trillion so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. “Elektron hukumat rivojlanish indeksi”da kamida 55-o‘ringa ko‘tarilish maqsad qilin-gan. Bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun qator hujjat loyihalari ishlab chiqilgan.

Taqdimotda ushbu loyihalar va takliflar muhokama qilindi.

O‘ZA

SPORTCHILARNI OLIMPIYA VA PARALIMPIYA O‘YINLARIGA MAQSADLI TAYYORLASH TIZIMI YO‘LGA QO‘YILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Ma‘lumki, 2024-yilda Parijda o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yurtimiz sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etib, umumjamoa hisobida har ikki yo‘nalishda 13-o‘rinni egallagan edi. Joriy yil 13-fevralda bo‘lgan videoselektor yig‘ilishida yurtimizda olimpiya harakatini yanada rivojlantirish, kelgusidagi musobaqalarga puxta hozirlik ko‘rish vazifasi qo‘yilgandi. Shunga muvofiq, 2028-yilda AQSHning Los-Andjeles shahrida bo‘ladigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqildi.

Qaror bilan 10 ta ustuvor vazifa belgilanmog‘da. Bular — sport turlarini ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan toifalarga ajratgan holda kuchaytirish, natijador sport turlari geografiasini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni quyi bo‘g‘indan boshlab shaffof usulda saralab olish, xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslangan milliy metodika yaratish, terma jamoalar uchun aniq maqsad va natijadorlikka yo‘naltirilgan o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini tashkil etish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash kabilardir.

Shuningdek, O‘zbekiston sportchilarini 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash dasturi va maqsadli ko‘rsatkichlar belgilanmog‘da.

Bu sohada ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo‘mitasining 14 ta hududiy bo‘limi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Olimpiya harakatini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus vakili bo‘ladi. Har bir hududga Sport vazirligi va Olimpiya qo‘mitasidan mas‘ullar birkutiriladi.

Asosiy maqsad faqat bitta Olimpiada emas, doimiy va mustahkam zamin yaratishdir. Iqtidorli sportchilarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” musobaqasi yo‘lga qo‘yiladi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida “Prezident Olimpiadasi” sifatida o‘tkaziladi. G‘olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorlanadi.

Respublika olimpiya va paralimpiya markazining faoliyati milliy terma jamoalar zaxirasini yaratishga qaratiladi. Uning ta‘minoti 2026-yildan boshlab respublika byudjetiga o‘tkaziladi. Markaz 8-11-sinfhar uchun maktab, 1-2-kurslar uchun kollej sifatida faoliyat ko‘rsatadi hamda qabul kvotasi oshiriladi. 1-2-kurs o‘quvchilariga Sport vazirligi stipendiyasi beriladi. O‘quv-mashg‘ulotlar o‘tkazib borish uchun Olimpiya shaharchasi inshootlari markazga beg‘araz asosda birkutiriladi.

Shuningdek, atletlar zaxirasini kengaytirish maqsadida xususiy sport klublari faoliyati takomillashtirilib, rasmiy musobaqalardagi ishtiroki ta‘minlanadi. Yuqori natija ko‘rsatgan sportchilar milliy terma jamoalarga qabul qilinishi mumkin bo‘ladi.

Sportchi va murabbiylar uchun ko‘plab rag‘batlar ham nazarda tutilmog‘da. Jumladan, nufuzli musobaqalar g‘olib va sovrindorlari oliy harbiy ta‘lim muassasalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinadi. Mahoratlil sportchilarni boshlang‘ich bo‘g‘inda yetishtirgan murabbiylar uchun ham ustamaning muayyan qismi to‘lab boriladi.

Davlatimiz rahbari sport federatsiyalari faoliyatini samarali tashkil etish, hududlarda soha infratuzilmasini yaxshilash, sportchi va murabbiylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN OZARBAYJONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2-4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 2-3-iyul kunlari Boku shahrida Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi va boshqa oliy darajadagi tadbirlar bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlash, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida

kooperatsiya va almashinuvlarni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Prezidenti 4-iyul kuni Xonkendi shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitida ishtirok etadi va qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazadi.

O‘ZA

TASVIRIY VA AMALIY SAN‘AT YOSHLAR TARBIYASINING AJRALMAS QISMI

Davlatimiz rahbariga tasviriy va amaliy san‘at sohasini yanada rivojlantirishga oid qaror loyihasi haqida axborot berildi.

Bu sohalar xalqimiz madaniyatining, yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi. Lekin ilgari, o‘nlab yillar davomida rassomlar e‘tibordan chetda qolgandi. Shu bois, Prezidentimiz Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida bu masalaga to‘xtalib, mutasaddilarga ko‘rsatma bergan edi.

Loyihaga ko‘ra, 2026-2027-yillarda investitsiya dasturi doirasida Badiiy akademiyaning Markaziy ko‘rgazmalar zali va fondi binosini rekonstruksiya qilish, Toshkent fotosuratlar uyida Multimedia markazi tashkil etish rejalashtirilgan.

Eng muhimi, san‘atsevar yoshlar uchun imkoniyatlar kengaytiriladi. Jumladan, Badiiy fond hududida zamonaviy galereya hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi barpo etiladi, Sharq miniatyura san‘ati muzeyida o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil qilinadi. Benkov nomidagi rassomlik maktabi ta‘miralanib, 400 o‘rinli qo‘shimcha o‘quv binosi, 200 o‘rinli yotoqxon quriladi.

“Ustoz-shogird” tamoyili asosida yosh qalamkashlarni tarbiyalab kelayotgan tajribali

rassomlar qo‘shimcha rag‘batlantirib boriladi. Har yili tanlov asosida eng iste‘dodli ijodkorlar xorijiy mamlakatlarga tajriba almashishga yuboriladi.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ta‘lim sifatini oshirish choralari ko‘riladi. Bu yerda ilg‘or xorijiy o‘quv reja va dasturlar bosqichma-bosqich joriy etiladi. Professor-o‘qituvchilarning munosib badiiy asarlari ilmiy monografiyaga englashtiriladi. Shuningdek, bu institutni bitirgan mutaxassislariga maktablarda tasviriy san‘at fanidan dars o‘tishga ruxsat beriladi.

“Yangi O‘zbekiston manzaralari”, “Tarixiy allomalar” va “Zamon qahramonlari” turkumidan ijodiy asarlarni davlat buyurtmasi asosida yaratish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Prezidentimiz hududlarda ham rassomlar uchun sharoitlarni yaxshilash, yoshlarni tasviriy va amaliy san‘atga jalb etish zarurligini ta‘kidladi.

O‘ZA

30 YIL YOSHILAR KUNI

YANGI TARIX YARATADIGAN OLTIN AVLOD

**YOXUD YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN
O‘TKAZILGAN TANTANALI MAROSIMNI KUZATISH
ASNOSIDAGI MULOHAZALAR**



Yoshlar kuni nafaqat yoshlar intiqib kutadigan, balki butun mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlanadigan sana. Chunki shu kuni Prezidentimiz aynan barkamol avlod vakillari bilan uchrashib, ular bilan fikr almashadi, mamlakatimiz kelajagiga oid ko‘plab masalalar, tashabbuslarni o‘rtaga tashlaydi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, shu kuni mamlakatimizda yoshlarga oid yuritilayotgan siyosat natijalari tahlil qilinib, kelgusi ishlar rejalashtirib olinadi.

Yoshlar kuni joriy yilda ham ko‘tarinki ruh va kayfiyat bilan qarshi olindi. Garchi Toshkentdagi Xalqaro kongress markaziga davlatimiz rahbari ishtirokida bo‘lib o‘tgan tantanali tadbirda eng ilg‘or yoshlarning ayrimlari jamlangan bo‘lsa-da, kun kayfiyati butun yurtimiz bo‘ylab yoyildi.

Davomi 3-beta

MATONATDAN USHALGAN ORZU

**PREZIDENT SOVG‘ASI — YANGI UYNI QABUL QILIB OLGAN
FOTIMA SAIPOVANING OILASIDA KATTA BAYRAM**

Davlatimiz rahbari ishtirokida 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvdagi bir holat tadbir ishtirokchilari hamda muloqotni kuzatib borgan millionlab qalblarga hayajon taqdim etdi. Velosport bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi, xalqaro toifadagi sport ustasi, Osiyo chempioni Fotima Saipova va uning yaqinlari ko‘nglidagi azaliy orzu bir lahzada ro‘yobga chiqdi.

Davomi 2-beta



O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: KELAJAKKA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan Ozarbayjonda bo‘ladi va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitida ishtirok etadi.



Ozarbayjon O‘zbekistonning yaqin do‘sti va vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli strategik hamkoridir. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1995-yil 2-oktabrda o‘rnatilgan. O‘shandan buyon o‘zaro hurmat va ishonch ruhida izchil rivojlanib borayotgan ikki tomonlama muloqot

strategik sheriklik va ittifoqchilikning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi. Ikki davlat rahbarlarining do‘stona va o‘zaro mustahkam ishonchga asoslangan munosabatlari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi sheriklikni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmog‘da.

Iftixor

Davomi 2-beta

TOLEYIMGA BITGAN QASHQADARYOSAN!..

Oppoq nasibadir tog‘laringda qor,
Bog‘ingdan rang so‘rab bahor xat yo‘llar.
Boqsang, har bir dilda faxr-u iftixor,
Azizdir dala-dasht, biyobon-cho‘llar.
Ko‘nglimni to‘ldirgan sarin sabosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..*

Halollik hosili doim xushxabar,
Kinga Tangri yordir, bilmas zavollar.
Haq yo‘lin ko‘rsatar mahshurga qadar,
Hazrat Imkanagiy, Amir Kulollar.
Zafar tug‘larini tutgan — duosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Olamda shundayin ellar ham borki,
Orzu qilib yashar buyuk sultonni.
Shukrlar aylayin, haq-tole yorki,
Beshigin tebratding Sohobqironni.
Kuch — adolatdadir, mangu sadosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Mehru muhabbatlar berib islomga,
Mehru muhabbatga bo‘lding sazovor.
Dillar to‘lib ketdi nurli kalomga,
Qo‘yding istiqloлга o‘zing poydevor.
Istiqbolli buyuk yurtsan, ma‘vosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Ortidan yursang gar ulug‘ zotlarning,
Buyuk manzillarga yetgaysan borib.
Iymoni bot elning peshonasiga,
Bitilgan saodat — Abdulla Orif.
O, yillar armoni — qutlug‘ nidosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Bir kuy kelayotir Hisor yoqlardan,
Qanchalar o‘tlig‘dir, shunchalar nafis.
Bulbullar uyg‘ongay munis ohlardan,
Kuylayver, Zamira, Asliddin hofiz.
Sen shunday betakror kuysan, navosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Tuprog‘u gardlaring ko‘zga surarman,
Maysayu giyohing boshim uzra toj.
Mangu Qashqadaryo bo‘lib yurarman,
Sen obihayotsan, men senga muhtoj.
Misli Odam Ato, Momo Havosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Qashqadaryo — aziz, shavkatli diyor,
Seni desam ko‘zim o‘ngida jahon.
Bag‘ringda har bir yosh shod-u baxtiyor,
Buyuk kelajakdan xushxabar — nishon.
Yangi O‘zbekiston — yangi dunyosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

Mard, tanti, bahodir erlar, o‘g‘lonlar,
Ayollar qalbida sevgi-sadoqat.
Musaffo osmonlar, go‘zal zamonlar,
Tinch yurtga bayramlar yarashgay faqat.
Yurtsevar dillarga nursan, ziyosan,
Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!..

G‘ayrat MAJID

*Ustoz Abdulla Oripov satri

O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: KELAJAKKA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK

Boshlanishi 1-betda

2022-yilda Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish deklaratsiyasi hamda 2024-yilda Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma kabi hujjatlarning imzolanishi bilan ikki tomonlama munosabatlari tarixida mustaqo yangi sahifa ochildi.

Muntazam tashriflar va oliy darajadagi uchrashuvlar hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida yuqori sur‘atlarini belgilab, o‘zaro aloqalarni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilaypti. Prezident Ilhom Aliyevning 2022-yil iyun va 2024-yil avgust oylarida O‘zbekistonga buyurgan davlat tashriflari, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil avgust oyida Ozarbayjonga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlardagi muhim voqealar bo‘ldi. Ushbu tashriflar davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, energetika va madaniy-gumanitar sohalarini qamrab olgan o‘nlab shartnomalar imzolandi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan ko‘p tomonlama turli forumlarda, jumladan, Qo‘shilmaslik harakati Muloqot guruhi va 2023-yilda BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari bo‘yicha maxsus dasturi (SPEKA) sammitlarida, Turkiy davlatlar tashkiloti va BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasida (COR29) qatnashdi.

O‘z navbatida, Ozarbayjon yetakchisi 2022-yilda O‘zbekistonda tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va 2023-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitlarida ishtirok etdi.

2025-yilning 10-11-iyun kunlari Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi va uning doirasida to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida qatnashdi.

Ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy hamkorlik ochiq va konstruktiv muloqot tamoyillariga asoslanadi. Mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi muntazam maslahatlashuvlar, BMT, Qo‘shilmaslik harakati, TDT, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy hamda xalqaro tuzilmalar doirasidagi yaqin sheriklik mintaqaviy va global rivojlanishning ko‘plab dolzarb masalalari bo‘yicha O‘zbekiston va Ozarbayjon pozitsiyalarining o‘xshashligini tasdiqlaydi.

Kun tartibida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) doirasidagi hamkorlik alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston 1992-yil 28-noyabrda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘ldi va mazkur tuzilma doirasida boshqa davlatlar bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni kengaytirish, jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, xorijiy sheriklar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, mintaqada yangi transport yo‘laklarini yaratish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish xalqaro hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlaridandir.

Shu nuqtayni nazardan, O‘zbekiston IHTning faol ishtirokchisi sifatida logistika yo‘laklarini, savdo-investitsiya platformalarini rivojlantirish va mintaqada barqaror taraqqiyotga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surayotgani, ular faol qo‘llab-quvvatlanayotgani va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlash lozim.

IHT doirasida O‘zbekiston va Ozarbayjon samarali hamkorlikni namoyish etib, bir-birining tashabbuslarini izchil qo‘llab-quvvatlab, qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga hissa qo‘shyapti,

bu esa ikki tomonlama kun tartibini mazmunan boyitmoqda. O‘tgan sakkiz yil davomida eng oliy va yuqori darajadagi 150 dan ortiq tashrif amalga oshirildi.

Ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va barqaror mazmunli davlatlararo almashinuvning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan parlamentlararo muloqot buni yaqqol namoyon etmoqda. Shuningdek, ikki davlat parlamentlarida faoliyat yuritayotgan do‘stlik guruhlar o‘zaro ishonch, siyosiy muvofiqlikni mustahkamlash, keng ko‘lamli tashabbuslarni amalga oshirishda qo‘shma yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qilayotir.

Idoralararo darajadagi hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. Ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazilib, transport ma‘muriyatlari darajasida yaqin muloqotlar olib borilmoqda, savdo-iqtisodiy aloqalar, sanoat kooperatsiyasi mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon mos ravishda

tomonlar kelgusi yillarda uni bir necha barobar oshirishga intilmoqda. Bunga mamlakatlar o‘rtasida o‘rnatilgan erkin savdo rejimi va joriy yilning iyun oyida Bokuda so‘nggi yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo qo‘shma komissiya yaqindan ko‘maklashmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon hududlararo hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratayotir. 2023-yil fevral oyida Toshkentda Birinchi O‘zbekiston — Ozarbayjon hududlararo forumi bo‘lib o‘tdi. Uning yakunlari bo‘yicha Samarqand va Ganja, Xiva va Shusha, Buxoro va Lankoron, Qo‘qon va Sheki shaharlari o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi. 2024-yil may oyida Ozarbayjonning Guba shahrida II Hududlararo forumi o‘tkazildi. Mazkur anjuman yakunida Namangan va Mingchevir, Guliston va Fuzuli, Termiz va Bilyasuvlar shaharlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Bundan tashqari, 2024-yil avgust oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan biznes-forum doirasida Jizzax va Guba, Shahrisabz

o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy maktab barpo etilgani o‘zbek va ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi mustahkam do‘stlikning yana bir belgisi bo‘ldi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi madaniy aloqalar ham jadal rivojlanaypti. Delegatsiyalar almashinuvi muntazam ravishda, jumladan, yuqori darajada amalga oshirilmoqda.

2023-yilning aprel-may oylarida O‘zbekistonda Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan bir qator madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazildi. Mazkur tadbirlar O‘zbekistondagi Ozarbayjon madaniyat markazi bilan birgalikda tashkil etildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 40 mingga yaqin ozar diasporasi istiqomat qiladi va ularning barchasi xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shmoqda. Bu esa ikki davlat rahbariyati tomonidan yuqori baholanayotir. Shu tariqa ozarbayjonlik san‘at ustalarining madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashdagi xizmatlari e‘tirof etilgan holda O‘zbekistonning yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Prezidentining farmoni bilan Rashid Behbudov nomidagi Ozarbayjon davlat musiqali teatri vokalisti Gulyanak Mamedova 2022-yilda “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti”, 2024-yilda Ozarbayjonning taniqli madaniyat arbobi Po‘lat Bulbul o‘g‘li “O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, bir qator ozarbayjonlik jamoat va davlat arboblari “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

O‘z navbatida, Ozarbayjon Prezidentining farmoni bilan “O‘zbekkonsert” davlat muassasi solisti Nasiba Abdullayeva “Ozarbayjon Respublikasi xalq artisti”, Y.Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli badiiy rahbari Abduhoshim Ismoilov, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi rektori Kamoliddin O‘rinboyev va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Ali Nosirli “Dostluk” ordeni bilan taqdirlangan.

Ozarbayjonning “Shirvon” folklor guruhi joriy yilning aprel oyida Xiva shahrida o‘tkazilgan IV Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalida Gran-prini qo‘lga kiritdi.

Ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash sohalarida ham hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida talabalar va ilmiy xodimlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan, qo‘shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 27-28-may kunlari Andijon shahrida O‘zbekiston va Ozarbayjon oliy o‘quv yurtlari rektorlarining birinchi forumi bo‘lib o‘tdi, unda ikki davlatning 50 ta oliy o‘quv yurtlari rektorlari boshchiligidagi 130 dan ortiq delegatsiya vakillari ishtirok etdi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugungi kunda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘zaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, ittifqochilik munosabatlarni kengaytirish uchun mustahkam zamin hozirlashda davom etmoqda.

Aytish joizki, O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi, shuningdek, IHT sammitidagi ishtiroki har ikki davlatning o‘z mintaqalarida nufuzli ishtirokchi sifatidagi mavqegini mustahkamlovchi muhim voqea bo‘lishi shubhasiz. Mazkur tadbirlar O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi mustahkam qardoshlik rishtalari nafaqat ikki tomonlama darajada, balki xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham izchil rivojlanib borayotganining yaqqol tasdiq‘idir.

“Dunyo” AA



Shukuh

“

Velosport kishiga iroda, sabr va maqsad sari intilishni o‘rgatadi. Eng muhimi, Fotima o‘ziga ishonchni mustahkamlay oldi. “Asosiysi — qo‘rqmaslik. Birinchi qadamga ko‘p narsa bog‘liq. Agar chin dildan mehnat qilsangiz, shug‘ullansangiz, natija albatta bo‘ladi”, deydi u.

MATONATDAN USHALGAN ORZU

PREZIDENT SOVG‘ASI —
YANGI UYNI QABUL QILIB OLGAN
FOTIMA SAIPOVANING OILASIDA
KATTA BAYRAM



Boshlanishi 1-betda

Yoshlar kuni arafasida yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bunda o‘zining yuksak azmu shijoati, ijodiy va intellektual salohiyati, iste‘dod va qobiliyatini namoyon etib, halol va samarali mehnati, turli sohalarida erishgan yutuqlari bilan yurtimiz taraqqiyotiga, xalqaro obro‘-e‘tiborini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotgan tashabbuskor va yetakchi

2025-yil fevralda Tailandda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 1-o‘rinni egalladi. G‘alabaga munosib hissa qo‘shganlar orasida Fotima Saipova ham bor edi — u T1 toifasida eng yaxshi natijani qayd etib, musobaqaning oltin medaliga ega chiqdi.

— Velosportga qiziqishim bir necha yil oldin boshlangan, — deydi chempion qiz. — Bu bir qarashda oson tuyuladigan, lekin juda ham iroda va mehnat talab qiladigan sport turi. Ilk bor

“

— DILBANDIM MENING FAXRIM, —
DEYDI FOTIMANING ONASI NILUFAR OPA
SAIPOVA. — IMKONIYATI CHEKLANGANINI
HECH QACHON TAN OLMAYDI, DOIM
HARAKATDA, O‘Z USTIDA ISHLAB
CHARCHAMAYDI. MANA NATIJASI,
MASHAQQATLI MASHG‘ULOTLARI ORTIDAN
OILAMIZ AZALIY ORZUSIGA YETISHDI.
AVVALO, BUNING UCHUN DAVLATIMIZ
RAHBARIGA CHEKSIZ MINNATDORLIK
BILDIRAMAN. OILAMIZ NOMIDAN ERTAYU
KECH DUODAMIZ.

yoshlar taqdirlanadi. Joriy yil shunday yoshlar qatorida Fotima Saipova ham “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlangan edi.

Ana shu shonhoni topshirish jarayonida davlatimiz rahbari mamlakatimiz sha‘nini xalqaro arenalarda munosib himoya qilayotgan parasportchi qizimizni bag‘riga bosib tabrikлади. So‘ng O‘zbekiston yetakchisi Fotimaning shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlar yetarli ekani, ammo uyi yo‘q ekaniini aytib, uni turar joy bilan ta‘minlashga qaror qildi. Bu bo‘yicha Toshkent viloyati hokimiga topshiriq berildi.

Yodingizda bo‘lsa, o‘tgan yili Yoshlar kuni arafasida Prezidentimiz bundan keyin ham qizlarning ta‘lim olishi, daromad topishi, sharoitlarini yaxshilash borasidagi ishlar davom ettirilishini ta‘kidlagan edi. Jumladan, og‘ir sharoitga tushib qolgan, uy-joyga muhtoj qizlar uchun ijtimoiy uylar qurilishi, sog‘lig‘i tufayli ishga qatnay olmaydigan qizlarning yashab turgan xonadonida masofaviy ish bilan ta‘minlanishi choralar ko‘rilishi belgilab olingan edi. Mazkur qaror esa so‘z va amal birligini namoyish qildi.

Fotima Saipova — O‘zbekiston paralimpiya terma jamoasi a‘zosi, T1 toifasidagi velosportchi, ko‘plab xalqaro musobaqalarda mamlakat sharafini munosib himoya qilib keladi. Jumladan, o‘tgan yili yanvarda Avstraliyada o‘tgan “Parij — 2024” Olimpiadasi yo‘llanmasi uchun muhim hisoblangan jahon kubogi birinchi bosqich saralash bahslarida bronza medalni qo‘lga kiritdi. Bu mamlakatimizning paravelosiped shosse yo‘nalishida birinchi nufuzli medali edi.

Davlatimiz rahbari topshirig‘i bilan kecha Chirchiq shahrida barcha sharoitlari mavjud yangi uyning kalitini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Ha, shu paytgacha shaxsiy boshpanasi bo‘lmagan sport yulduzi Fotima Saipova oilasi Prezidentimiz e‘tibori tufayli o‘z uyiga ko‘chib kirdi.

— Dildandim mening faxrim, — deydi Fotimaning onasi Nilufar opa Saipova. — Imkoniyati cheklanganini hech qachon tan olmaydi, doim harakatda, o‘z ustida ishlab charchamaydi. Mana natijasi, mashaqqatli mashg‘ulotlari ortidan oilamiz azaliy orzusiga yetishdi. Avvalo, buning uchun davlatimiz rahbariga cheksiz minnatdorlik bildiraman. Oilamiz nomidan erta-yu kecha duodamiz. Bu qizimning jasorati, matonati, sabr-qanoati evaziga berilgan haqqoniy baho. Yurtimizda hech kim e‘tibordan chetda qolmasligi, inson qadri har narsadan ustun ekaniya yana bir dalildir.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: BIRINCHI PARLAMENTLARARO FORUM BO‘LIB O‘TDI

Xiva shahrida “Yangi imkoniyatlar sari: muloqotdan hamkorlikdagi harakatlarga” mavzusidagi Birinchi O‘zbekiston — Ozarbayjon parlamentlararo forumda O‘zbekiston va Ozarbayjon parlamentlari a‘zolari hamda yoshlar parlamentlari vakillari ishtirok etdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Ozarbayjon Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hurmat va birodarlik aloqalari mustahkamlanib borayotganini, Prezidentlar — Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning sa‘y-harakatlari bilan mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni strategik hamkorlik va ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilganini alohida e‘tirof etdi.

Forumda do‘stlik guruhlar faoliyatini kengaytirish, ularni parlamentlararo komissiyalar darajasiga olib chiqish,

Ali GUSEYNLI,
Ozarbayjon Milliy Mejlisining
Huquqiy siyosat va davlat qurilishi
qo‘mitasi raisi:

— O‘zbekiston bizni qo‘llab-quvvatlamogda, ayniqsa, yetakchilarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni hamkorlikni rivojlantirishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilaypti. Bizning vazifamiz bu yo‘nalishni parlament darajasida davom ettirishdan iborat.

Yangi Konstitutsiyaga qabul qilinayotganda ham shu yerda bo‘lish baxtiga muvassas bo‘ldim va huquqshunos sifatida bu jarayon bilan yaqindan tanishdim. Ishonchim komilki, qonunchilik sohasida ko‘plab yo‘nalishlarda hamkorlik uchun yuqori salohiyat mavjud.

Ozarbayjon Yevropa Kengashi a‘zosi, ko‘plab xalqaro tashkilotlar ishtirokchisi

qo‘shma qonunchilik tashabbuslari ishlab chiqish, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, iqtisodiyot, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, raqamli transformatsiya va ekologiya kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Forum yakunlari bo‘yicha amaliy takliflarni o‘z ichiga olgan Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi.

Milliy Mejlis deputatlari Xivadagi Birinchi O‘zbekiston — Ozarbayjon parlamentlararo forumi haqida o‘z fikrlarini bildirdi.



va qator parlament birlashmalari raisi sifatida O‘zbekiston bilan global platformalarda yaqindan hamkorlik qilib kelmogda.

Ishonchim komilki, mazkur forum hamkorligimizni yanada mustahkamlashga turki beradi va biz bir-birimizni yanada faol qo‘llab-quvvatlashda davom etamiz.

Nigar ARPADARAI,
Ozarbayjon Milliy Mejlisi a‘zosi:

— Dastlabki mazkur forum har ikki davlat va parlamentlarimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Bugun biz bir qator muhim mavzular, jumladan, xalqaro munosabatlarning bugungi holati va “yashil o‘tish” bilan bog‘liq masalalarni muhokama qildik.

Ma‘lumki, bir necha oy oldin butun dunyo diqqati Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan COP29 konferensiyasiga qaratilgan edi. Natijada asosiy qaror sifatida iqlimni moliyalashtirish bo‘yicha hujjat qabul qilindi. Bu katta mas‘uliyat va Ozarbayjonning xalqaro maydondagi roli e‘tirofidir.

Bextiyor ALIYEV,
Ozarbayjon Milliy
Mejlisi deputati:



— Bu O‘zbekistonga birinchi tashrifim. Mamlakatlarimiz o‘rtasida yuqori darajadagi hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilgan. Buni davlatlarimiz rahbarlari o‘rtasidagi samimiy va ishonchli munosabatlarni hamda o‘zaro tashrif almashinuvlarining samarasi deb bilaman.

Xiva ming yillik tarixga ega shahar, shuningdek, ushbu kent butun turkiy dunyoning madaniy markazidir. Turkiy xalqlar vakillarining bu yerda bo‘lishi katta sharaf.

Parlamentlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish mamlakatlarimiz va xalqlarimizning yanada yaqinlashuviga xizmat qiladi. Bunday forumda ishtirok etishni O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari tarixida yangi sahifaning boshlanishi deyish mumkin.



Kaspiy dengizi orqali elektr kabelini o‘tkazish bo‘yicha “Ozarbayjon — Qozog‘iston — O‘zbekiston” qo‘shma loyihamiz bor. U mamlakatlarimiz ekologiya va qayta tiklanadigan energiya masalalariga qanchalik jiddiy yondashayotganining yaqqol ko‘rsatkichi sanaladi.

Ushbu kun tartibini ilgari surishda ikki mamlakat parlamentlari faol ishtirok etishi juda muhim. Bugun biz o‘zbekistonlik hamkasblarimiz bilan fikr almashib, “yashil” tashabbuslarni amalga oshirishda qonun chiqaruvchi organlarning roli muhimligini ta‘kidladik. Zero, parlamentlar darajasida hukumatlarimiz samarali oldinga siljishiga imkon beruvchi huquqiy mexanizmlar shakllantiriladi.

Musa GULIYEV,
Ozarbayjon Milliy
Mejlisining Mehnat va
ijtimoiy siyosat qo‘mitasi
raisi:



— Ozarbayjon va O‘zbekiston bir gildamda naqshlar, mushtarak turkiy ildizlar, madaniyat, din va geografik yaqinlik bilan bog‘langan xalqlardir. Bularning barchasi bizni yanada kuchliroq birlashtiradi.

Turkiy davlatlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon va butun mintaq xalqlarining birligini mustahkamlashi zarur. Bugungi forum yanada jipslashish, birdamlik va umumiy kelajak mavzusida bo‘lib o‘tyapti.

Do‘stligimiz yanada mustahkamlanishi kerak. Bu faqat ikki davlat prezidentlari va parlamentlarining ishi emas, ayni paytda har birimizga tegishli. Biz birodarlardек bir-birimizning muvaffaqiyatlarimizdan chin dildan quvonamiz va bu muvaffaqiyatlar O‘zbekistonga ham, Ozarbayjonga ham quvonch bag‘ishlaydi.

“Dunyo” AA
Xiva



YANGI TARIX YARATADIGAN OLTIN AVLOD

YOXUD YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN TANTANALI MAROSIMNI KUZATISH ASNOSIDAGI MULOHAZALAR

Nuqtayi nazar

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Birinci holat. Marosimning ikkinchi qismi “O‘zbekiston” anjumanlar saroyida tashkil etildi. Ishxonamiz yaqin joylashgani bois, mazkur saroy yonidan har kuni o‘taman. Salobatli inshootda mahalliy va xalqaro tadbirlar muntazam tashkil etib turiladi.

Bayram munosabati bilan bo‘lib o‘tgan tadbir boshlanishi arafasida atrofini bir oz kuzatdim. Galdagi tadbir boshqalaridan bir jihati bilan ajralib turdi, ya‘ni tashrif buyuruvchilarning aksariyati yangi O‘zbekiston kelajagi — yosh yigit-qizlardan iborat edi. Ular bayram bahonasida maqsadlari, orzu-istaklari ro‘yobi yo‘lidagi islohotlar samarasini, bu yo‘lda kelgusida amalga oshirilishi zarur ishlar, rejalarni shaxsan davlat rahbaridan eshitib, muloqot qilish imkoniga ega bo‘lganidan mamnun edi.

Tadbirda Prezidentimiz yoshlar kelajagiga daxldor ko‘plab foydali, istiqbolli va manfaatlilikni ta’kidlab, hamda tashabbuslarni ilgari surdiki, ular nafaqat navqiron avlod vakillarini mamnun etdi, balki mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tantanal marosimda davlatimiz rahbari O‘zbekiston yoshlarini ushbu qutlug‘ ayyom bilan tabriklab, mehr va ishonchini bildirish barobarida ular qo‘lga kiritayotgan yutuqlarni ham e‘tirof etdi. Ilg‘or yoshlar nomini birma-bir sanab, ularning ota-onalari, ustozlariga alohida tashakkur bildirdi.

— Birinchi va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz, — deya ta’kidladi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, bugun yangi O‘zbekiston yoshlari baxtli avlod vakillari. Nega deganda, so‘nggi yillardagi izchil islohotlar tufayli yoshlarimiz har jabhada o‘zini namoyon etmoqda.

Yurtimiz aholisining yarmidan ko‘pi yoshlar. Bu katta kuch, shu bilan birga, ulkan imkoniyat va salohiyat ham. Ya‘ni ularga qancha ko‘p e‘tibor qaratilsa, mamlakat shunchalik qudrati bo‘lib boraveradi.

Yoshlarimiz erishayotgan, qo‘lga kiritayotgan yutuqlar soni ham, ko‘lami ham keng. Shu ma’noda, bugungi kunda yoshlarga sifatli ta’lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o‘rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganini zamon talabidan kelib chiqayotgan islohot deya baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Birgina “ilm — tarbiya — innovatsiya” janjiri yaratilishi qancha-qancha yoshlarning orzu-maqadlari ro‘yobga chiqishiga mustahkam poydevor yaratdi. Buni davlatimiz rahbari ham qayd etib, o‘tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliygohlarga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egallaganini, bilimli yoshlar ilk bor TOP-5 talikdagi oliygohlarga kirib, tarixiy natijani qo‘lga kiritganini alohida tilga oldi. Natijada bugungi kunda o‘zbekistonlik 30 nafar yosh yigit-qiz dunyoning TOP-10 talik oliygohida, 500 nafari TOP-100 va 1500 nafari TOP-300 dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshash bilan bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi mohiyatini o‘zida mujassam etgan bu tizimda yoshlar bilan bog‘liq biror masala yo‘qki, e‘tibordan chetda qolgan bo‘lsa. Prezidentimizning o‘zi, qolaversa, vaziru hokimdan tortib mahalla raisigacha — hammaning ishi yoshlar bilan bog‘landi. Shunday bo‘lishi ham kerak. Chunki yoshlar vatanimiz istiqbolli. Kelajakka esa bugungi harakatlar orqali zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, o‘tgan yili 150 mingdan ziyod yosh xalqaro til sertifikatlarini qo‘lga kiritgan. Bu avvalgi yildagiga nisbatan 2 barobar ko‘p.

Ayni paytda yurtimizda 15 mingga yaqin o‘quv va 7,5 mingga kasbga tayyorlash markazi faoliyat yuritmoqda. So‘nggi yillarda ular faoliyatini rivojlantirish uchun 100 dan ortiq imtiyoz va yengillik berildi.

“Ta’lim — kelajak sarmoyasi” ezu g‘oyasi ommaviy harakatcha aylanmoqda. Ilm istagidagi yoshlar ana shu g‘oya atrofida birlashib, maqsadlarini amalga oshirishga intilmoqda. Xususan, ularning nufuzli xorijiy oliygohlarda o‘qish imkoniyatini oshirish maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyati takomillashtirildi. Pirovardida TOP-300 dagi oliygohga kirgan o‘g‘il-qizlarning o‘qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlaydigan bo‘ldi.



BU ODDIY GAP YOKI ODDIY MUKOFOT EMAS, JASORAT, MATONAT, SABR-QANOATNING YANA BIR HAQQONIY BAHOSI. BU YANGI O‘ZBEKISTONDA HECH KIM E‘TIBORDAN CHETDA QOLMASLIGI, INSON QADRI HAR NARSADAN USTUN EKANINING YANA BIR ISBOTI BO‘LDI. BALKI SHU BOIS MAZKUR HAYAJONLI LAHZANING QISQA VIDEO SI MAROSIM TUGAMASIDANOQ INTERNETDA, IJTIMOYIY TARMOQLARDA JUDA TEZ TARQALDI. ADOG‘I YO‘Q MUNOSABATLAR, BILDIRILAYOTGAN FIKR-MULOHAZALARNI-KU, AYTMAY QO‘YAYERAY...

E‘tiborga molik yana bir jihat: mamlakatimizdagi yoshlarga oid siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston BM Tning “Yoshlar — 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi. Yoshlar taraqqiyot indeksida esa eng tez rivojlanayotgan davlat sifatida qayd etildi. Buxoro Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent MDH yoshlari poytaxti maqomini oldi.

So‘nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo‘lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshgani ham O‘zbekistonda yoshlar e‘tibori

qanchalik samara berayotganiga yana bir misol bo‘ladi. Bu raqam va ko‘rsatkichlar ko‘lami yalinda kengayishi aniq. Negaki yuqorida keltirganimizdek, yoshlarning ilm olishiga yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar samarasi uzoq kuttirmasligi turgan gap.

Ikkinchi holat. Tantanal marosim davomidagi bir voqea hammaning ko‘nglidan joy oldi. Davlatimiz rahbari bir guruh yoshlarni taqdirlash chog‘ida O‘zbekiston paralimpiya terma jamoasi a‘zosi, xalqaro toifadagi sport ustasi, Osiyo chempioni Fotima Saipovaga uy sovg‘a qilinishini aytib, shu yerning o‘zida Toshkent viloyati hokimiga zarur topshiriq berdi.



Bu oddiy gap yoki oddiy mukofot emas, jasorat, matonat, sabr-qanoatning yana bir haqqoniy bahosi. Bu yangi O‘zbekistonda hech kim e‘tibordan chetda qolmasligi, inson qadri har narsadan ustun ekanining yana bir isboti bo‘ldi. Balki shu bois mazkur hayajonli lahzaning qisqa videosi marosim tugamasidanoq internetda, ijtimoiy tarmoqlarda juda tez tarqaldi. Adog‘i yo‘q munosabatlar, bildirilayotgan fikr-mulohazalarni-ku, aytmay qo‘yayeray...

Menimcha, yangi O‘zbekistonda yoshlarga, xususan, imkoniyati cheklanganlarga qanchalik e‘tibor beriladi, umuman, yurtning inson qadri qanchalik ulug‘lanadi, deya savol beruvchilarga ana shu bir lahzali kadrlar ko‘rsatilsa kifoya. Kadr bir lahra, lekin undagi holat bir umrlik.

Ha. Biz ana shunday — farzandlarini tashlab qo‘ymaydigan, kamchiligini to‘ldiradigan, yutug‘idan ta’siridan chiqmasimizdan galdagi yutuq qo‘lga kiritilmoqda. Qaysidir musobaqada navbatdagi oltinlar qo‘lga kiritilishi ketidan boshqa sport turidan jahonda tengsiz bo‘lishaypti.

Yoshlarimiz ham shunga mos, intiluvchan, g‘ayratli. Ayniqsa, sport sohasida hali bir g‘alabasi ta’siridan chiqmasimizdan galdagi yutuq qo‘lga kiritilmoqda. Qaysidir musobaqada navbatdagi oltinlar qo‘lga kiritilishi ketidan boshqa sport turidan jahonda tengsiz bo‘lishaypti.

Yurtidoshlarimiz boshqa sohalarda ham katta muvaffaqiyatga erishmoqda. Masalan, yoshlar ta’lim-tarbiyasida kitobsevarlik, san’at va madaniyatning ahamiyati katta. Bu yo‘nalishda muntazam o‘tkazib kelinayotgan ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etishni istovchilar

safi tobora kengayib bormoqda. Chunki yoshlar o‘z tengdoshlari yutuqlarini ko‘rib, ularga yetib olishga harakat qilmoqda. Endi bunday orzuli yoshlar soni yanada ortadi. Negaki bu kabi tanlovlarda g‘olib bo‘lganlar chekka-chekka hududlardagi maktablarga borib, chiqishlar qiladi.

Tanlovning respublika bosqichi g‘oliblariga madaniyat va san’at oliygohlariga kirishda imtiyoz beriladi. “Iqtidor” maktab ansambli tanlovining viloyat bosqichi g‘oliblari bolalar musiqa va san’at maktablarida bepul o‘qitiladi.

Kullas, misollar ko‘p. Sanasak, ko‘ksimiz g‘urur va ifitxorga to‘lib, vatanparvarlik tuyg‘umiz jo‘shib ketaveradi. Vatanparvar, xalqini, yurtini sevvuchi inson aslida shunday bo‘ladi. Yurtidoshining kichkina bo‘lsa-da yutug‘idan xursand bo‘lib ketaveradi. Xursandchilik sababchilarini ulug‘lashdan, madh etishdan charchamaydi.

Xulosa. So‘nggi yillardagi ishlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizdagi yoshlarga oid siyosat mohiyati faqat ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilmaganini tobora chuqur anglay boshlaymiz. Buning zamirida katta siyosiy iroda, mashaqqatli mehnat, ulkan tashabbus va istiqbolli g‘oya mujassam. Buning ortida yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta’minlovchi yuksak maralar yetibdi. Prezidentimiz ushbu maralarni aniq fakt va dalillar bilan batafsil asoslab berdi.

Qayd etganimizdek, bular boshlanishi. Hali qilinajak ishlar oldinda. Yoshlarimizni yanada yuksak cho‘qqilar kutib turibdi. Uni zabt etish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berilaypti.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqi so‘ngida yana bir zo‘r gapni aytdi: “Sizlarning har bir yutug‘ingiz — butun xalqimizning yutug‘idir. Azmu shijoatigiz, sog‘lom dunyoqarashingiz, baxtu iqbolingiz — millionlab ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yaqinlaringizning ham baxtu saodatidir”.

Darhaqiqat, yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar barchamizniki. Ular bilan har qancha faxrlansak arziydi. Yangi O‘zbekistonda yaratilayotgan shart-sharoit, imkoniyat, salohiyat bizga ana shunday yoqimli tuyg‘ularni taqdim etmoqda.



“

Dil izhori

MAMLAKATIMIZDA YOSHLARGA BERILAYOTGAN E‘TIBOR O‘Z NATIJASINI NAMOYON ETMOQDA. BARCHA SOHALARDA QO‘LGA KIRITILAYOTGAN YUTUQLAR ZAMIRIDA HAM ULAR UCHUN YARATILGAN SHART-SHAROIT, IMKONIYATLARNI KO‘RISH MUMKIN. YIGIT-QIZLARNING HAR BIR TAKLIF VA TASHABBUSINI DAVLATIMIZ RAHBARI QO‘LLAB-QUVVATLAMOQDA.

UNUTILMAS VOQEA BO‘LDI

Narimon SOBIROV,
Akademik V. Vohidov nomidagi
Respublika ixtisoslashtirilgan
xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot
markazining endoskopiya bo‘limi
shifokor-endoskopisti, “Kelajak
bunyodkori” medali sohibi:

ham alohida e‘tibor qaratilayotgani, shu sohada faoliyat yuritib kelayotgan biz kabi yoshlar e‘tibordan chetda emasligi faxr uyg‘otadi.

Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutini tamomlaganman. Hozir Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida faoliyat olib boryapman. Markazimizda eng murakkab jarrohlik amaliyotlari bajarilaypti.

Tibbiy diagnostika va davolashning ilg‘or, samarali usullari keng tatbiq etilmoqda. Eng murakkab va yuqori texnologik operatsiyalar tufayli og‘ir xastaliklardan aziyat chekayotgan yurtidoshlarimiz shifo topayotir. Ular ilgari ko‘p vaqt va mablag‘ evaziga xorijdagi klinikalarga borishi kerak bo‘lardi. Hozir buyrak, jigar transplantatsiyalari o‘zimizda amalga oshirilaypti.

Oxirgi yillarda mutaxassislarimiz nafaqat poytaxtda, viloyat yoki tuman markazlarida, balki eng chekka hududlarga ham borib shunday jarrohlik amaliyotini o‘tkazib kelmokda.

Qoraqalpog‘istonning eng chekka tumani Qo‘ng‘irotda ilk bor buyrak transplantatsiyasini bajardik. Bir qancha murakkab, yuqori texnologik operatsiyalarni o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldik. Oldinlari tahlil olish uchun ham organizmni kesish kerak bo‘lsa, hozir endoskopik usulda bajaryapmiz.

Mehnatlarimiz munosib e‘tirof etilganidan juda mamnumiz. Rag‘bat bor joyda o‘shish bo‘ladi. Kelgusida yangi yutuqlar bilan ushbu mukofotga munosib bo‘lishga harakat qilaman.

INTILGAN
MAQSADIGA YETADIFeruz HAKIMOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universitetining 1-bosqich
magistranti,
“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti
sohibi:

har bir taklif va tashabbusini davlatimiz rahbari qo‘llab-quvvatlamogda. Yoshlarga berilayotgan imtiyozlarga xorijlik tengdoshlarim havas qilganiga ko‘p bor guvoh bo‘lganman. Shu jumladan, o‘zimning ham “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlanishim chin ma’noda havas qilish arizigulik voqea bo‘ldi.

Hozirgi kunda ta’lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar juda tez rivojlanmoqda va turli yo‘nalishlarda o‘zgarishlar kuzatilayotir. Tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, kommunikatsiya va boshqaruv ko‘nikmalariga katta e‘tibor qaratish zarurati bor. Faqat bilim berish emas, balki hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etayotir.

Ta’lim yo‘nalishida ilmiy ish olib boryapman. 60 ga yaqin maqolam mahalliy va xorijning nufuzli nashrlarida chop etilgan. 3 ta o‘quv qo‘llanmam nashrdan chiqqan. Qo‘llanma ta’limda soliq tizimining nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilgan holda uni optimallashtirish, mavjud muammolarga yechim ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Rivojlangan davlatlardagi soliq mexanizmlarini mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha qarashlarim, tushunchalarimni ham kiritdim.

10 ga yaqin xalqaro olimpiadalar g‘olibi, bir necha grantlar sohibimam. Mukofotga loyiq ko‘rilishimda ana shu kichik mehnatlarim inobatga olindi.

TALAB QILINADIGANI
FAQAT O‘QISHAziza IMOMXO‘JAYEVA,
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod
maktabi direktori:

— Kuni kecha davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvini kuzatar ekanman, ular uchun yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlarni ko‘rib, rosti, havasim keldi. Birgina misol, yaqinda Beruniy nomidagi xalqaro maktab faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Dunyoning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlariga iqtidorli bolalarni tayyorlash maqsadida tashkil etilgan ushbu xalqaro maktabga bu yilgi 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 nafar o‘quvchi saralab olindi va 3 ta yo‘nalishda ko‘p qitiladi. Kelgusida o‘quv o‘rinlari karrasiga ko‘paytiriladi. Umuman, milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o‘quvchi seleksiya qilinib, Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi dunyoning nufuzli oliygohlariga tayyorlanishi bolalarimiz kelajagiga qaratilgan katta e‘tibordan darak. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Yaqinda “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyati takomillashtirildi. Endi TOP-300 talik oliygohga kirganlar uchun o‘qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshlaydi.

Yoshlar bilan uchrashuvda davlatimiz rahbari: “Yoshlikda olingan bilim — toshga o‘yilgan naqsh, kelajak uchun poydevor degani. Poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, hayotingiz, baxtingiz binosi shunchalik muhtasham bo‘ladi”, deya ta’kidladi.

Ana shunday salohiyatli o‘g‘il-qizlarga ta’lim berishga ixtisoslashtirilgan maktabimiz milliy adabiyotda romanchilik maktabimiz asoschisi, jaddidchilik harakatining yirik vakili Abdulla Qodiriy xotirasini abadiylashtirish va ijodini e‘zozlash, shuningdek, yosh avlod qalbidatanga muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini, uning yutuqlaridan faxrlanish hissini va ajdodlarimizning ma’naviy merosiga bo‘lgan hurmatni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan.

Ijod maktabi nafaqat ona tili va adabiyotni chuqur o‘rganishga qaratilgan, balki o‘quvchilarga ingliz tili, tarix, shuningdek, barcha umumta’lim fanlarini chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatini ham beradi. Eski o‘zbek yozuviga asoslangan matnshunoslik va notilik san’ati kabi maxsus fanlarga alohida e‘tibor qaratilaypti. Berilgan imkoniyatlardan foydalanib, o‘quvchilarning ta’lim va xorijiy tillarni o‘rganishda salmoqli yutuqlarga erishmoqda. So‘nggi yillarda maktab bitiruvchilarining 80 foizi ingliz tili bo‘yicha milliy va xalqaro sertifikatlarni muvaffaqiyatli qo‘lga kiritdi. Ijod maktabimizning yuqori reytingi bunga misol bo‘la oladi.

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari nafaqat yurtimiz oliygohlarida, balki Turkiya, AQSH, Avstriya va Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda ham ta’lim olishda davom etmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.

“YASHIL” ENERGETIKA NAFAQAT ISHLAB CHIQARISHNI OSHIRADI, BALKI TANNARXNI HAM PASAYTIRADI

Abdulla XURSANOV,
“Olmaliq KMK” AJ boshqaruvi raisi



Joriy yil 23-iyunda Prezidentimiz yirik sanoat korxonalarini “yashil” energiya bilan ta’minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi. Taqdimotda bu yil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan loyihalar va yaqin kelajakdagi rejalar haqida axborot berildi. Ulardan asosiy maqsad generatsiya, modernizatsiya va energiya samaradorligini ta’minlashdir. Xususan, respublika bo’ylab yil yakunigacha 12 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi, 12 ta energiya saqlash tizimi ishga tushirilishi qayd etildi. Ularga jami 5 milliard dollardan ziyod investitsiya sarflanib, salkam 9 milliard kilovatt-soat quvvatga ega bo’lishi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan energiyani tejash va undan oqilona foydalanish, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida energiya samarador uskunalar o’rnatish vazifasi qo’yildi. Yig’ilishda elektr iste’moli yuqori 18 ta tarmoqni o’zini o’zi energiya bilan ta’minlaydigan tizimga o’tkazish chora-tadbirlari muhokama qilinib, ijtimoiy muassasalarda quyosh energiyasidan foydalanish borasidagi ishlar haqida ham axborot berildi. Mazkur yig’ilishda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga ham kechiktirib bo’lmaz qator vazifalar belgilab berildi. Bugungi kunda kombinat yiliga 3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi iste’mol qiladi. 2030-yilga borib yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilishini hisobga olganda,

bu ko’rsatkich 7,6 milliard kilovatt-soatga yetadi. Bu o’sish qaysi manbalar hisobidan qoplanadi? Prezidentimiz 2026-yilga borib “yashil” energetika hisobiga energiya iste’molining qancha qismi ta’minlanishini tahliliy tarzda hisob-kitob qilish bo’yicha topshiriq berdi. Ushbu maqsadlarda kombinatda 12 ta korxonaning energoauditi yakunlandi va 5 tasida jadal olib borilmoqda. Bunda energoaudit chora-tadbirlari evaziga yiliga 100 million kilovatt-soat elektr energiyasini tejab qolish imkoniyati aniqlandi. Bundan tashqari, Ohangaron tumanida 150 MVt. quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi va 75 MVt. quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini qurish loyihasi

amalga oshiriladi. Prezidentimiz ushbu loyihani jadallashtirish bo’yicha ko’rsatmalar berdi. O’zbekiston geografik joylashuvi bo’yicha quyosh nurlanishining yuqori darajasiga ega. 300 dan ortiq quyoshli kun uni samarali ishlatish uchun ajoyib imkoniyat. Iqtisodiyot rivojlanayotgani va aholi soni ortishi bilan energiyaga talab ham oshib bormoqda. Shuning uchun an’anaviy energiya manbalari bilan birga quyosh energiyasini kengroq jalb qilish zarur. Quyosh energiyasi toza va atrof-muhitga zararsiz energiya manbai bo’lib, O’zbekistonda ekologiyani yaxshilash va issiqxona gazlari ajralib chiqishini kamaytirishda muhim rol o’ynaydi. Ishlab chiqarish tannarxini tushirish, ma’nan eskirgan texnologik uskunalarni energiyatejamkor zamonaviylariga almashtirish, texnologik ishlab chiqarish jarayoniga “yashil” energetikani joriy etish, qayta tiklanuvchi

energiya manbalaridan ko’proq foydalanish, ayniqsa, quyosh fotoelektr stansiyalari o’rnatishni yanada ko’paytirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Kombinativizm 2025-yilda yoqilg’i-energetika resurslarini tejash bo’yicha qator vazifalar belgilab olingan edi. Jumladan, bu yil ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida 140,7 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejalandi. Joriy yilning yanvar-may holatiga ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish hisobiga 17 million kilovatt-soat, ishlab chiqarish texnologiyasini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish evaziga 21 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilindi. Bunda chastota rostdash qurilmalari orqali

boshqarish, ma’dan tashishda transport-logistika sxemalari va qurilmalarini o’zgartirish orqali elektr energiyasi iste’molini kamaytirish, energiyatejamkor nasos agregatlar o’rnatish kabi chora-tadbirlar ko’rildi. Shuningdek, EKG-15 rusumli ekskavatorlarning uskunalarini yangilash va ta’minot sxemalarini o’zgartirish hisobiga rejasiz to’xtash holatlari kamaytirildi. Mis eritish zavodida 7 ta tejamkor kompressor almashtirilishi hisobiga yiliga 2 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilinmoqda. Kombinativizm 2026-yilda 4,3 milliard kilovatt-soat, 2030-yilda 7,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi iste’moli ko’zda tutilgan. Pop, Xonobod, Ohangaron va Bo’ka quyosh

fotoelektr stansiyalari hamda Shouksin va Forish shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi evaziga 2025-yilda 1,2 milliard kilovatt-soat, 2030-yilda 7,6 milliard kilovatt-soat “yashil” energiya iste’mol qilinaidi. Shuningdek, kombinat obyektlarida o’rnatilgan jami 9 MVt. quvvatli quyosh panellari orqali yiliga 10 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Yangi qurilayotgan 2-mis eritish zavodida bug’ turbinasi o’rnatilishi hisobiga qo’shimcha 64 million kilovatt-soat energiya olinadi. “Yashil” energetikaga o’tish borasidagi ishlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ham tushib boradi. Bu asosiy mahsulotimiz bo’lgan mis tannarxi tushishida ham seziladi. Shuningdek, “yashil” energetikaga o’tish natijasida konlarda ma’dan qazib olishda, mis boyitish fabrikasida boyitishda hamda mis eritish zavodida mis katodi ishlab chiqarish jarayonida elektr energiyasi sarfi yildan yilga kamayib boryapti.

Mazkur sohadagi ishlarimiz bardavomlik kasb etib, ikkilamchi energiya resurslaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish kengaytiriladi. Xususan, 10 ta turbouzatma o’rnatilishi evaziga sutkasiga 24 ming, yiliga 7,9 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilinadi. Shuningdek, 5 ta bug’ generatori o’rnatilib, yiliga 1,5 million kilovatt-soat tejalandi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati ishchi-xodimlari xonadonlariga quyosh panellari o’rnatish maqsadida alohida tizim ham yaratilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan ushbu topshiriqlarni bajarish orqali xalqimiz farovonligini ta’minlashga, yashash sharoitini yaxshilashga erishamiz. Shu bois, kombinat barcha kuch va resurslarni ishga solgan holda “yashil” energetikaga o’tish ishlarini yanada jadallashtirish harakatida.

“ Mis eritish zavodida 7 ta tejamkor kompressor almashtirilishi hisobiga yiliga 2 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilinmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Davlat dasturi amalda



OLIS MAHALLALARGA SUV BILAN BARAKA QAYTDI

Bugungi islohotlar xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish, odamlarni hayotidan rozi qilishga qaratilgan. Surxondaryoliklar ham so’nggi yillarda ushbu maqsad yo’lidagi sa’y-harakatlar samarasini ko’ryapti. Ular bilan suhbatlashib, dil so’zlariga quloq tutsangiz, bunga amin bo’lasiz.

— O’zgarishlar haqida mahallamiz misolida aytsek, yo’llar qayta qurildi, zamonaviy maktab va tibbiyot muassasasi bunyod etildi. Suv bilan ta’minlandi, — deydi Sho’rchi tumanidagi “Joyilma” MFY raisi Nurbek Hayitov. — Mutasaddi rahbarlar va faollar tashabbusi bilan mahallamizdagi muammolar bosqichma-bosqich ijobiy hal etilmoqda. Fuqarolar ishtirokidagi o’zgarishlar hammanizni quntovimlarda. Ayni vaqtda mahallamizning “Anhor” ko’chasida asfalt yo’tqizilyapti. Bundan tashqari, “Paxtakor”, “Istiqlol”, “Bunyodkor”, “Farovon” ko’chalari ham bosqichma-bosqich asfaltlanadi.

Odamlar hayoti, jamiyat va iqtisodiyot rivojida, shubhasiz, ichki yo’llarning holati, sifati muhim ahamiyatga ega. Chunki yo’llarning qad darajada ekani kishilar kayfiyatiga, ishlar unumiga ta’sir qiladi. Keyingi yillarda Sho’rchi tumanining ham ichki yo’llarini ta’mirlash, holatini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Joyilma mahallasida yo’l qurilishidan tashqari aholi toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi. Oqar suvi ta’minoti ham yaxshilandi. Buning uchun mahallaning 3 ta massivida artezian qudug’i qazildi. Quduqlar yonida o’rnatilgan quyosh panelli orqali suvi chiqarish nasosi elektr energiyasi bilan ta’minlandi.

Joyilmalik Shuhrat Esanov hududidagi foydalanilmay yotgan maydonni 30 yil muddatga ijaraga olgan edi. Tabiiyki, u dehqonchilik qilib, daromad topishni ko’ngliga tukkandi.

— Yer olgach, suvi muammosiga duch keldik. O’tgan yili suvsizlikdan ekinimiz nobud bo’ldi. Bu yil esa masalaning yechimi topildi. Artezian qudug’lari foydalanishga topshirilgani yaxshigina daromad olishimizga sabab bo’lmoqda, — deydi Shuhrat Esanov. Qisqa fursatda mazkur manzil obod qilindi. Bunda aholi uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlaridan tortib, ta’lim, sog’liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xush inshootlarigacha alohida e’tibor qaratildi.

— Bunday yangilanishlarni biz, keksalar bir umr orzu qilganmiz, — deydi joyilmalik mehnat faxriysi Nurali Mo’minov. — Masalan, mahallamizdagi “Yoshlik” ko’chasida yashaydigan aholi shu kunga qadar ichimlik suvdan qiyналardi. Lekin 1750 metr masofaga quvur tortilgach, bugun ushbu ko’chadagi xonadonlarga ham toza suvi kirib bordi.

Darvoqe, Joyilma mahallasidagi 41-maktab uchun yangi 480 o’rinli bino qurib berildi. Bundan tashqari, “Qoraarig” massivida qiymati 7 milliard 551 million so’mlik loyiha asosida bog’cha barpo etildi.

— Drayveri asosan dehqonchilik va chorvachilik bo’lgan mahallamizdagi qay bir xonadonga kirmang,



bir parcha bo’lsa ham bo’sh turgan yerni ko’rmaysiz. Kimdir ochiq maydonda, boshqa birov issiqxona sharoitida dehqonchilik qilmoqda, — deydi mehnat faxriysi Asadulla Hasanov. — Yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan oqilona foydalanib, o’z biznesini yo’lga qo’yib, yangi ish o’rinlari ochayotgan tadbirkorlar ko’p.

Ushbu mahallada yashaydigan O’g’i’lov Davlayevani ko’pchilik mohir tomorqachi deb biladi. U bir necha yildan beri issiqxonada bulg’or qalampirini yetishtirib, yaxshigina daromad olish mumkinligini isbotlab kelmoqda.

— Biz, dehqonlar faqat ekin ekib, yig’ish bilan cheklanmaymiz. Bozorga to’g’ri vaqtda chiqish, mahsulotni to’g’ri saqlash texnologiyalaridan foydalanish ham juda muhim, — deydi O’g’i’lov Davlayeva. — Mahallamizdagi hokim yordamchisi ko’magi bilan imtiyozli kredit asosida issiqxona qurib, ro’zg’or kam-ko’shini bemalol qoplayapmiz. Dastlab tomorqadan ko’zlangan hosilni olish uchun biogumus tayyorladik. Yer ko’chat ekishga shay bo’lgach, bulg’or qalampirining maxsus navini o’tqazdik. Bu nav mahalliy iqlimga, turli kasalliklarga chidamli.

Surxondaryoning qo’shni davlatga chegaradosh yana bir hududi — Uzun tumanida “Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo’yicha beshta og’ir mahalla tanlab olingan. Ularga respublika, viloyat hamda tuman miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari

biriktirilgan. Mazkur manzillarda bunyodkorlik va aholi farovonligiga xizmat qiladigan loyiha hamda ishlar jadal bajarilmoqda.

Masalan, tumanidagi Istiqlol mahallasida 3 ta artezian qudug’i qazildi. Qolaversa, uchta transformator o’rnatildi hamda elektr sim tarmog’i tortildi. Ariqlar qazilib, betonlandi. Natijada 690 ta xonadon oqar suvi bilan ta’minlandi. Bu o’z o’rnida aholi daromadining sezilarli o’sishiga olib keldi.

Kambag’allikni qisqartirish, aholi turmush darajasini oshirishda tomorqa madaniyatini rivojlantirish asosiy omil bo’lib xizmat qilmoqda.

— Istiqlol mahallasi ahlini yillar davomida qiynab kelayotgan muammolardan biri tomorqa sug’orish edi. Dastur asosida 3 ta artezian qudug’ini qazilgan fuqarolarning tomorqasidan bir yilda uch marta hosil olishiga zamin yaratdi, — deydi hokim yordamchisi Elmurod Yo’ldoshev.

Tumanidagi Kichik Jonchekka mahallasida shu yilning o’zida 1,7 kilometr ariq qazilib, betonlandi. Shuningdek, 25 ta beton simyog’och hamda transformator o’rnatildi. Artezian qudug’ini qazish ishleri yakuniga yetkazildi. Bu bilan mahalladagi 120 ta xonadon oqar suvi bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, mahalla aholisi yillar davomida tomorqani sug’orish muammosidan qiyналayotgan edi. Ushbu muammo ham mahallaga biriktirilgan tashkilot rahbarlari tomonidan hal etildi. Ariqlar betonlandi, artezian qudug’idan suvi chiqarildi. Endi fuqarolar tomorqasidan yil mobaynida uch martagacha hosil olishi mumkin.

Uzun tumanidagi Serharakat mahallasida bir vaqtlar kattagina uzumzor bo’lgan. Chorak asr davomida yering asl egasini topishdagi muammolar ortidan bu joy tashlandiq holatga kelib qolgandi. Bir muddat qarovsiz qolgan ushbu maydonda ham yaqin kunlarda yangi bog’ barpo etildi. Shu maqsadda mahallada suv inshooti qurilib, nasos o’rnatildi. Natijada 150 xonadon tomorqasini sug’orish imkoniga ega bo’ldi.

— “Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturida belgilab berilgan vazifalar ijrosini eng chekka hududlarda ham ta’minlash biz, mas’ullarning asosiy vazifasiga, vijdon ishiga aylanib boryapti, — deydi “Serharakat” MFY raisi Safarali Nurov. — Bir necha yildan keyin mahallamizga ham obihayot qaytib, fuqarolar orzusi ushaldi.

Inson qadri — amaliy harakat, haqiqiy o’zgarish, qalbdan chiqqan ehtirom ekani o’z isbotini topib bormoqda. Bugun yurtning eng chekka tumanlaridagi bo kabi yangilanishlar o’z-o’zidan bo’layotgani yo’q. Xalqni rozi qilish uchun bor imkoniyat va salohiyat ishga solinayotir.

Sarvar TO’RAYEV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

ISLOHOTLARDAN KUCH, ISHONCH OLAYOTGAN QISHLOQ AYOLLARI

Keyingi yillarda ayollarimizning hayot tarzi, ish amallarida o’ziga xos o’zgarish, rivojlanishlar bo’y ko’rsatayotir. Bugun uy bekalari tadbirkor, ishbi-larmon, bir so’z bilan aytganda, jamiyatning faol a’zosi-ga aylandi. Bu o’z-o’zidan amalga oshirilayotgani yo’q, albatta.



Bugunning gapi

Mamlakatimizda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, qo’llab-quvvatlash yo’lidagi islohotlar har bir oilaga kirib bordi. Endi chekka qishloqlarda ham yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini boshqarib, oilasi, hamqishloqlari koriga yarayotgan tashabbuskor ayollar safi kun sayin ko’payib bormoqda.

Oila va xotin-qizlar qo’mitasining 2022-2025-yillar davomida “Qishloq ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasi bu borada yangi imkoniyat e-shiklarini ochdi. Loyihaning samarali bo’lishida Jahon banki hamda Yaponiya ijtimoiy taraqqiyot jamg’armasining moliyaviy ko’magi qo’l kelmoqda.

Farg’ona viloyatidagi “Mehrg’ir” ayollar va bolalar markazi tomonidan shu kunga qadar So’x, Furqat, Yozoyovon va Qo’shtepa tumanlaridagi 28 ta mahallada “Ayollar daftrai” ga kiritilgan 500 ga yaqin xotin-qizning bandligini ta’minlash, ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Joylarda ayollar farovonligini oshiruvchi 90 ta guruh tashkil etildi. Loyiha doirasida jalb qilingan 4 nafar biznes trener ko’magida ishlab chiqilgan rejalarda Davlat xizmatlari markazi orqali 90 ta MCHJ ro’yxatdan o’tkazildi. Shu asosda 456 dan ziyod ayolning bandligi ta’minlandi.

Joylarda o’z qiziqishlari, yashash hududi geografik joylashuvi, atrof-muhit, ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik yo’nalishlarini inobatga olgan holda tikuvchilik, chorva va sut mahsulotlari ishlab chiqarish, asalarichilik, fitness klub, milliy shirinliklar, non va non mahsulotlari, novvoylik, bolalar uchun ko’ngilochar dasturlar, makaron ishlab chiqarish, ayollar poyabzali tikish, milliy ko’rpa-to’shaklar tayyorlash, paypoq to’qish, qo’ziqorin yetishtirish, oqqand, sovun ishlab chiqarish kabi yo’nalishlarni qamragan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati yo’lga qo’yildi.

Loyihaning umumiy qiymati 2 million 730 ming dollarni tashkil etadi. Farg’ona viloyatiga 750 ming dollar ajratilgan. Bundan ko’zlangan maqsad qishloqlardagi og’ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan ayollarga psixologik va iqtisodiy ko’mak berib, ularni qo’llab-quvvatlashdir. Shu orqali ular iqtisodiy faol ayolga aylantirildi.

Loyiha bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ayniqsa, anklav hudud bo’lgan So’x tumanida ayollarni ijtimoiy faollashtirish oson kechgani yo’q. Nogironligi bor yoki nogiron farzand tarbiyalayotgan ayollar, shuningdek, psixologik yordamga muhtojlarni guruhlariga jalb qilish, ular bilan ishlash, tadbirkor ayol sifatida shakllantirishga alohida e’tibor berildi.

2022-yili boshlanib, 2025-yilgacha davom etgan loyiha doirasida tumanidagi Sarikanda, Saribozorcha, Demursad, Lenbur, Devayron, Sohikbor va Sebzor singari mahallalarda jami 22 ta MCHJ tashkil etildi. Bu davrda So’x tumaniga 2 milliard 100 million so’m dan ortiq grant mablag’i jalb qilindi. Natijada chekka tumanidagi 114 ayol doimiy ish bilan ta’minlandi.

Uydan chiqmagan, o’zi mustaqil pul topmagan, oilada nogironligidan o’zini aybdordek tutgan yoki nogiron farzandi bilan band bo’lib, ruhan toliqqan ayollarning hayot tarzi o’zgardi. Ular mehnat jamoalarida ishlab, oilasi koriga yarayotganidan mamnun.

So’x tumanidagi ayollar bilan suhbatlashib, ko’zlaridagi quvonchdan, ertangi kunga ishonchdan xursand bo’ldim. Bugun ular ijtimoiy himoyaga muhtoj emas, ular tadbirkor. Mamlakatimizdagi islohotlardan kuch va ishonch olgan bu ayollar tom ma’noda davrimiz qahramonlaridir.

Gulchehra JO’RAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



UCHINCHI RENESSANS ADABIYOTINING BUNYODKORI KIM BO'LADI?



Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zbekiston tarixida Sohibqiron Amir Temur davri adolatli, farovon, o‘g‘rlik va jinoyatchilik kamaygan, ilmu ma’rifat, san’at va adabiyot taraqqiy etgan davr sifatida ko‘p e’tirof etiladi. O‘sha davrdagi adolatli jamiyat ta’rif etilganda, “Bir patnis tilla ko‘tarib olgan bola bozorning bu uchidan u uchiga oralasa, tilla tangalari bir dona ham kamaymay chiqqan ekan”, degan gap qo‘llanadi. Xalqimizda bozor “yomonlik uyi” sifatida qoraladi. Sababi bozorda turli qing‘ir ishlar ko‘p bo‘ladi. Shu bois, ibora hayotiy voqeilikmi, to‘qimami, bilmadim, ammo shuni fakt — o‘sha davr tariximizning har jabhada barkamollikka erishgan yillari bo‘lgan.

Umuman olganda, bir inson xoh kambag‘al, xoh boy bo‘lsin, oldiga qat’iyat bilan aniq maqsad qo‘yib, unga erishish yo‘lida zarur barcha ishini sidqidildan bajarsa va ko‘zlagan maqsadiga erishsa, demak, u yashayotgan jamiyat adolatli, davlat boshqaruvi tizimi to‘g‘ri ishlayotgan bo‘ladi, nazariyda.

Prezidentimiz yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagı nutqida yoshlarimizning kitob o‘qishga qiziqishini oshirishda tanlovlar muhim rol o‘ynayotganini aytdi. Bu yilgi tanlov g‘oliblaridan biri, ota-onasiga Prezident sovrini — avtomobil sovg‘a qilgan 8-sinf o‘quvchisi Dilbar Haydarova va uning ota-onasiga minnatdorlik bildirdi. Davlatimiz rahbari: “Dilbarxon qizim, sen o‘z misolingda inson chin dildan harakat qilsa, ko‘p narsaga erisha olishini isbotlading, bu yo‘lida ko‘pchilik uchun namuna bo‘lding. Buning uchun katta rahmat senga! Seni voyaga yetkazgan ota-onangga ham alohida minnatdorlik bildiraman”, dedi.

Rostdan ham bunday yoshlarning maqsadiga intilishidan o‘mak olsa arziydi. Yaqinda tanlovning g‘oliblaridan yana biri Maftuna Ochilova haqida “To‘qilmagan voqea” nomli hujjatli film ishlandi. Bu film ko‘pchilik yoshlarni yangi-yangi marallarni zabt etishga ruhlantirdi.

Maftuna Ochilova otasidan erta ayrilib, og‘ir bolalik yillarini boshdan kechirgan. Kasallamdan onasi uch bola tarbiyasi bilan ro‘zg‘or tashvishlarini gardaniga olishga majbur bo‘lgan. To‘ng‘ich farzandligi uchun kichkina bo‘lishiga qaramay, Maftuna bu yukning muayyan qismini ko‘tarishiga to‘g‘ri keldi. Lekin u adabiyot, mutolaa qiziqishini yo‘qotmadi. 2017-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi haqida eshiti va shu tanlovda g‘olib bo‘lib, Prezident sovg‘asini qo‘lga kiritishni o‘z oldiga qat’iy maqsad qilib qo‘ydi.

O‘shanda Maftuna 18 yoshda edi. Qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ko‘zi pishib ketgan qiz tirishqoqlik bilan oliy maqsadi tomon harakat qilishdan to‘xtamadi. Bu yil 23 yoshida tanlovning respublika bosqichida g‘olib bo‘lib, Prezident sovg‘asi — zamonaviy elektromobilni qo‘lga kiritdi. Intilishi, bilimi va salohiyati bilan nafaqat o‘zi, balki butun oilasini iqtisodiy qiyinchilik, ma’naviy bo‘shliqdan yuksak pog‘onaga olib chiqdi.

Bu siz o‘ylagandek bir kun borib test yechdi yoki savollarga javob berdi, omadi kulib zafar quchdi degani emas. U minglab kitobxon tengquri bilan kuch sinashdi. Avval mahalla, tuman bosqichida, so‘ng viloyat, respublika bosqichiga qadar bo‘lgan yo‘lni muvaffaqiyat bilan bosib o‘tdi.

O‘qigan minglab kitobiga suyanib, ilm-tafakkurini bir patnis oltin kabi ko‘tarib, yuqori marrani zabt etdi. Ha, uni boshida bir patnis oltin bilan bozorni kesib o‘tgan bolaga qiyoslash mumkin. Chunki bu yutuq faqatgina Maftunani emas, butun jamiyatning yutug‘idir.

Davlatimiz rahbari u haqda: “Maftuna Ochilova kitobxonlik bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinni olgani — katta natija. Lekin bu farzandimizda o‘ziga, hayotga, odamlarga ishonch paydo bo‘lgani, eng muhimi, adolat yuzaga chiqqanini men undan ham katta yutuq, deb hisoblayman”, deya ta’kidlagan edi.

Ha, jamiyatning yutug‘i shunda. Birgina

Maftunaning emas, oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shnisi, mahalla-ko‘y, tanish-bilishlarining bugungi O‘zbekistonda bilimli inson xor bo‘lmasligi, islohotlar inson manfaatlari yo‘lidagi to‘g‘ri amallar ekaniga ishonchi mustahkamlandi. Dunyoqarashi, o‘y-fikri o‘zgardi. Tafakkurida muzlab qolgan eskicha qarash, tushunchalar erib, yangi O‘zbekistonning o‘tashin ruhini his qildi. Kitobga mehr-muhabbati kuchayib, mutolaa ishtiyoqi ortdi.

Aslida, “Yosh kitobxon” singari tanlovlarining tashkil etilishidan ham maqsad shu — yurtdoshlarimiz orasida kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish, xalqimizning dunyoqarashi, ongu tafakkurini yuksaltirish. Shoirona aytganda, kitob o‘qigan insonning qanoti bo‘ladi. Qanoti borlar bilan esa yuksak marallarni zabt etishi mumkin.

Albatta, bu islohotlar yetarli ekanini bildirmaydi, qaytaga yanada kuchaytirish zarurati borligini ko‘rsatadi. Zero, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi yangilanishlarda keyingi yillarda sohada qanday natijalarga erishishimiz lozimligi aniq belgilab qo‘yilgan.

Jumladan, yosh kitobsevarlar sonini besh millionga yetkazish, har yili 100 ta badiiy asar, bolalar hamda o‘smirlar uchun 50 ta kitob yaratish, “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” ko‘p jildli va “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” 100 jildligini o‘zbek tilida nashr etish hamda qariyb 40 millionga yaqin kitob fondini raqamlashtirish belgilangan. Bir so‘z bilan aytganda, ikki-uch yilda erishilgan yutuqlar — maqsad aniq, marra yaqin, tanlagan yo‘limiz esa eng samarali va to‘g‘ri ekanini ko‘rsatmoqda.

Jamiyat aks-sadosi

Davlatimiz rahbari 2017-yildayoq kitob o‘qishni targ‘ib qilish va aholining kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, Prezidentimizning o‘sha yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaa va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorida aholini samarali axborot-kutubxona xizmati bilan ta’minlash tizimini yaratish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi.



Qaror ijrosi Maftuna singari kitob sotib olishga imkonio‘y q va shahardan olisda yashaydigan o‘g‘il-qizlarning o‘qishi kerak bo‘lgan asarlarni qo‘li yetadigan darajada yaqinlashtirib berdi. Mahalla idoralari, maktablarda kutubxonalari tashkil etilib, mavjudlarining zamonaviy texnologiyalar, yangi nashrlar bilan boyitilishi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi.

Huddudlar bo‘ylab “Kitob karvonlari” tashkil etilishi, “Yosh kitobxon oila”, “Mushoira”, “Yosh kitobxon” kabi tanlovlar o‘tkazilishi yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar orasida mutolaa madaniyatini targ‘ib qilishda samarali loyiha bo‘ldi. “Mutolaa” audio va elektron kitoblar platformasi yaratilgani, “Yoshlar uchun ming kitob” loiyhasi amalga oshirilayotgani buyuk maqsadlarimiz tomon jadal odimlashga zamin yaratdi.

Ortga qaytmas islohotlar bugun tom ma’noda yurtdoshlarimizning dunyoqarashi, ma’naviyatini yuksaltirdi, kitobga munosabatini o‘zgartirdi. Odamlarning o‘zi kitobxonlik bo‘yicha yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishiga turki berdi. Chunki xalqimiz azaldan ilm-ma’rifat, kitobxonlik bo‘yicha katta salohiyatga ega. Keyingi yillarda qalbimizdagi xira tortgan mutolaa uchquni qayta alangalana boshladi. Buni ko‘rish uchun ijtimoiy hayotimizdagi o‘zgarishlarga bir qur nazar tashlash yetarli.

Hozirgi axborot texnologiyalari davrida xalq kayfiyati, dunyoqarashi, o‘y-fikrlarini bilish uchun internet tarmog‘i katta maydonga aylangan. Internetning o‘zbek segmentiga nazar tashlasak, u yerda o‘qirmanlar guruhi paydo bo‘lganini kuzatish mumkin. She’rlari, aktyorlik mahorati bilan yurtdoshlarimiz



Bugungi misli ko‘rilmagan keng qamrovli islohotlar, zamonamiz qahramonlarining jasorati badiiy adabiyotimizda yetarli darajada namoyon etilmayotgani bor gap. Zero, adabiyot jamiyatning bugungi yutuq-kamchiliklarini tarix zarvarqalariga muhrlaydi. Yangi O‘zbekistonning qanday yaratilgani haqida ming yillardan keyin ham avlodlarimiz qulog‘iga qadimiy ovoz bo‘lib shivirlaydi.



Atomdan qudratli kuch

Atoqli adib Abdulla Qahhor “Adabiyot atomdan kuchli”, deya bejiz aytmagan. Rostdan ham bugungi axborot asrida uning dunyo hamjamiyatiga ta’sirini chuqur his qilaymiz. Axborotlar orasida adabiyot davlat va jamiyatning tarixi, buguni, ertasiga bevosita ta’sir o‘tkaza oladigan eng kuchli qurolga aylanib bormoqda. Masalan, ayrim g‘araz niyatli kishilar millatlarning o‘tmishi, tarixiy shaxslari, qahramonlariga salbiy qarashlarni shakllantiradigan badiiy talqin, obrazli bo‘yoqlardan foydalanib, turli asarlarni chop etmoqda. Bunda tarixiy faktlarni o‘z maqsadi yo‘lida o‘zgartirish yoki yolg‘on ma’lumotlar bilan to‘ldirishdan ham tap tortishmayapti. Buyuk tarixga ega o‘zbek jamiyati uzoq yillardan beri buning jabrini tortadi.

Birgina misol, sobiq tuzum davrida buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurni “Temurlang” deb obro‘sizlantirishga urinish, qonxo‘r sarkarda, yovuz inson, adolatsiz hukmdor qilib tasvirlangan tom-tom kitoblar yozildi. Xayriyatki, istiqlol yillarida adolat qaror topdi. Amir Temurning tarixdagi o‘mi mustahkamlandi. Ammo ayrim xorijlik tarixshunoslari hali-hanuz ulug‘ tarixiy siymoga tosh otishdan to‘xtamayapti. Tarixi ming yillarga borib taqaladigan o‘zbek millatini kichiklashtirishga urinishlar g‘araz niyatli kishilarning turli adabiy chiqishlarida ham o‘z aksini topmoqda.

Bunday ig‘volar ommalashtirish yoshlarimizning milliy ruhini, vatanparvarlik hissga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Dunyo madaniyati olamida o‘zbek imiji pasayishiga olib keladi. Haqiqatga mos kelmaydigan bunday fikrlar bilan to‘lib-toshgan adabiyotlar uzoq yillar davomida saqlanib qolishi millatning kelajagiga ham ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Albatta, ularga qarshi faqat bir yo‘l — milliy adabiyotimizni kuchaytirish, xalqaro badiiyat maydoniga olib chiqish, xalqimiz, o‘g‘il-qizlarimizning mafkuraviy immunitetini shakllantirish orqaligina kurashish mumkin.

Shu bois, xalqimizning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bilan birga milliy adabiyot namunalari ni ko‘paytirish, ularning mazmun-mohiyati, salohiyati va qamrovini kengaytirish, ommabopligini oshirish ham muhim.

Xalqimiz orasida allaqachon kitob o‘qish madaniyati shakllana boshladi. Ammo o‘zbek kitob bozoriga nazar tashlasangiz, eng ommabop asarlar xorijlik yozuvchilarning ijod namunalari ekanini ko‘rsatish. Shuningdek, turk va ingliz adabiyotining ulushi ancha yuqori. Shubhasiz, ular o‘z yurtining eng foydali, mashhur asarlari, bizning kitobxonlar dunyoqarashini ham boyitadi. Ammo bu kitoblar o‘zbek yoshlari qabida millatsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalari kurtak yovvishi, axloqiy yuksalib, ko‘p yillik milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhi shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shu bois, zamonaviy o‘zbek adabiyoti raqobatbardoshligini, ommabopligini oshirish bo‘yicha hali qiladigan ishimiz talaygina.

Adabiyot yashasa — millat yashar

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi ishlar o‘zbek adabiyoti rivojini karrasiga jadallashtirishi tabiiy. Masalan, keyingi yillarda jadid adabiyoti namunalari yangidan chop etilmoqda. O‘zbekiston tarixiy shaxslari to‘g‘risidagi qo‘llanmalar soni nisbatan oshdi.

O‘zbek kitobxonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Usmon Azim kabi atoqli adiblarimizning badiiy asarlarini qo‘lidan qo‘ymaydi. She’rlarini yoz olib, hikoya, romanlarini mutolaa qilishdan charchamaydi.

Ammo adabiyotda yangi nomlarni kashf qilish, iste’dodlarni izlab topish, keng jamoatchilikka tanitish borasida yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish bugungi adabiy muhit zaruratiga aylanmoqda. Vaholanki, bugun ham xalqimiz orasida yosh ijodkorlar, o‘zbek adabiyotining javohirlari, noyob iste’dod egalari talaygina.

Birgina misol: ikki-uch yil oldin yosh yozuvchilardan Javlon Jovliyev “Qo‘rqma” romani bilan o‘zbek kitobxonlari mehniri qozondi. Asar qisqa muddatda ommalashtirdi. Kitobxonlar qalbidan joy olib, kitob bozoridagi talabgir asarlar ro‘yxatiga qo‘shildi. Taniqli adabiyotshunoslari yangi adabiyot namunasi sifatida e’tirof etdi.

Oxirgi yillarda ushbu yo‘nalishda “Yosh kitobxon” kabi zamonaviy, katta rag‘batga ega loyihalarga ehtiyoj sezilyapti. Albatta, ko‘p yillar oldin yo‘lga qo‘yilgan Zomin seminarlari yoki yosh ijodkorlarning ilk qadam bo‘lgan “Birinchi kitobim” loyihalarini yanada jonlantirish, tartib-tamoyilini bugunga moslash zarur, nazariyda.

Ayniqsa, bugungi misli ko‘rilmagan keng qamrovli islohotlar, zamonamiz qahramonlarining jasorati badiiy adabiyotimizda yetarli darajada namoyon etilmayotgani bor gap. Zero, adabiyot jamiyatning bugungi yutuq-kamchiliklarini tarix zarvarqalariga muhrlaydi. Yangi O‘zbekistonning qanday yaratilgani



haqida ming yillardan keyin ham avlodlarimiz qulog‘iga qadimiy ovoz bo‘lib shivirlaydi.

Shuningdek, ko‘pchilik yoshlar olis o‘tmishdagi ota-bobalarimiz yoki xorijdagi olim, san’at namoyandalari ko‘ra o‘zi yashayotgan davr, jamiyatda kichik bo‘lsa-da yutuqqa erishayotgan aka-opalaridan ko‘proq o‘mak oladi. Yaqinda kitob do‘konlaridan birida o‘zbek tiliga tarjima qilingan yulduz futbolchilarning bolaligi haqidagi asarlarga ko‘zim tushdi. Ko‘pchilik bolalar ushbu kitoblarni katta qiziqish bilan sotib olmoqda. Afsuski, o‘sha do‘kondan ayni yatima Yevropa maydonlarida o‘ynayotgan o‘zimizning futbolchilarning haqida kichkina risola ham topolmadim.

Axir Diyora Keldiyorova, Nodirbek Abdusattorov, Hasanboy Do’smatov kabi sportchilar, xalqaro fan olimpiadalar g‘oliblari, yosh olimlar, san’at vakillari, istiqbolimiz, xalq tinchligi uchun jon fido etgan askarlar hayoti haqidagi asarlar o‘zbek yoshlarini e’tiborsiz qoldirmaydi. Ularga havas qilib, bundan ham

baland marallarni zabt etuvchilar ko‘payadi. Buning uchun shunchaki ma’lumotoma emas, ta’sirli badiiy asarlar yaratish zarur. Bugungi islohotlarning mazmun-mohiyati, davlat va xalqimizning taraqqiyot yo‘li, Uchinchi Renessans, yangi O‘zbekiston g‘oyasi va tushunchasiga daxldorlik hissi uyg‘onishi, kelajagini yurt taqdiri bilan chambarchas holda yorqin tasavvur qila olishida mana shunday asarlar qo‘l keladi.

Zero, Abdulhamid Cho‘lpon “Adabiyot nador?” maqolasiida “Hech to‘xtamasdan harakat qilib turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o‘limg‘on va adabiyotning taraqqiyisiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkori qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur”, deya bejiz ta’kidlagan.

Yangi uyg‘onish davri poydevori

Yaqinda bir statistikaga ko‘zim tushdi. Aholisi eng ko‘p kitob o‘qiydigan davlatlar AQSH, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya ekan. E’tiborli jihati, kitobxon o‘lkalar boshqa sohalarda ham yetakchi o‘rinlarda turadi. Shuningdek, yana bir xalqaro statistika: Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Germaniya dunyoda eng ko‘p kitob chop etadigan davlatlar. Qiziq tomoni, yuqoridagi ro‘yxat deyarli o‘zgarishsiz qolayotganidir. Demak, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning birinchi talabi — milliy adabiyoti rivojlantirish.

Masalan, Xitoyda dunyo bo‘yicha eng ko‘p, yiliga 400 mingdan ortiq kitob chop etiladi. Buning uchun turli grant va mukofotlar e’lon qilindi. Ular orasida eng mashhuri “Mao Dun” adabiy mukofoti. Mukofot summasi 70 ming dollar. AQSHdagi grantlar esa 5000 dollardan 800 ming dollargacha yetadi. Yozuvchilarni moddiy tomondan eng ko‘p qo‘llab-quvvatlovchi davlat Irlandiya ekan. Irlandiya badiiy kengashi adabiyot sohasiga 6,6 million dollar ajratadi. Shundan 2,2 million dollar aynan yozuvchilar uchun grantlardir. Eng asosiysi, bu mamlakatlarda yozuvchilarning erkin ijod qilishi uchun barcha sharoit yaratib beriladi.

Aslini olganda, yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans iboralarini hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangrayotgan bir davrda ushbu yo‘nalishda salmoqli yangilanish va o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Boisi, xalq va jamiyatning uyg‘onish davri deganda, birinchi navbatda, ma’naviy uyg‘onish, milliy o‘zlikni anglash jarayoni tushuniladi. Milliy adabiyotni yuksaltirmay, bu maqsadga erishib bo‘lmaydi. Zero, har bir uyg‘onish davrining belgilari davlat va jamiyatda kuchli adabiyot namoyandalari, buyuk asarlar yaratilishidir.

Masalan, mintaqamizdagi ilk uyg‘onish davri — IX-XII asrlarda Rudakiy, Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib kabi adiblarning “Shohnoma”, “Qutadg‘u bilig” kabi hamda qomusiy olimlarimizning falsafiy asarlari yaratilgan.

Ikkinchi uyg‘onish davri — XIV-XV asrlarda Sharafiddin Ali Yazdiy, Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy hamda Alisher Navoiy asarlari xalqning dunyoqarashi, tafakkurini yuksaltirishda muhim o‘rin tutgan.

Qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga beshik bo‘lgan O‘zbekiston yana bir shunday evrilish jarayoni bo‘lag‘asida turibdi. Bu haqda davlatimiz rahbari yoshlar bilan uchrashuvda: “Birinchi va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — Yangi O‘zbekiston bun-yodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, dedi.

Bu yo‘lida milliy adabiyotimizni boshimiz uzra bayroq kabi hilpiratib borishimiz zarur. Chunki xalq o‘zi tasavvur etolmagan marraga yetolmaydi. Xalqning o‘y-fikri, tasavvuri esa uning adabiyotida yashaydi.

Qardosh ozarbayjon xalqining otashnafas farzandi Muhammad Fuzuliy turkchi g‘azal uslubini kamolot cho‘qqisiga ko‘targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g‘azallari ravon va musiqiyligi, o‘ynoqiligi bilan, go‘zal tashbehlariga boyligi bilan ko‘ngillarni band etadi. Fuzuliy o‘zbek xalqi uchun ham sevimli va qadrlidir. Bizning bobolarimiz Fuzuliy baytlarini ibtidoiy maktabdan yod olib ko‘ngilga jo qilganlar. Layli va Majnunning o‘tli muhabbatiga mahliyo bo‘lganlar, bir qancha o‘tmish shoirlarimiz Fuzuliy ohangida o‘g‘uz lahjasida g‘azallar bitganlar.

O‘zbek xalqi bugunda ham Fuzuliyni astoydil sevadi, uning harorati misralarini qo‘shiq qilib aytadi. Qaysi o‘zbek mana bu satrlarni bilmaydi:

Gul g‘unchaliginda xor ilandir,
Ochilsa bir o‘zga yor ilandir.
Aslinda chekar tikan azobin,
Fastinda hakim olur gulobin.

Yoki:

Noladandur nay kibi ovoza

ishqim baland,

Nola tarkin qilmazam

naytek kesilsam band-band.

Va yoki:

Azal kotiblari ushshoq baxtin

qora yozmishlar,

Bu mazmun ila xat ul sahfi

ruxsora yozmishlar.

Fuzuliy havo to‘lqinlari orqali har kun

G‘AZAL O‘ZINING SO‘NGGI YUKSAK NUQTASIGA KELDI. SHOIR BARCHA QILGAN ROZI DILI SHARHIGA YAKUN YASAYDI: OLAMDA MUHABBAT DEB ATALGAN BUYUK VA TENGSIZ QUDRAT BOR. U HAM AZOB, HAM LAZZAT, HAM QIYNOQ, HAM HUZUR. DUNYOGA KELIB TIRIKLIK SAODATIGA MUSHARRAF BO‘LGAN JON, AGAR U MUHABBAT OTASHIDA YONMASA, MUHABBAT LAZZATINI BILMASA, U OLAMGA KELMADI HISOB, TIRIKLIK BAXTIDAN BENASIB.

xonadonimiz mehmoni. Shoir nidosi asrlar osha bizning qalblarimizda aks sado topadi.

Shifoi vasl qadrin hajr ila

bemor o‘landan so‘r,

Zuloli zavq shavqin tashnayi

diydor o‘landan so‘r.

Shoirming mana shu ajoyib bayt bilan boshlanuvchi g‘azali xalqimiz orasida ayniqsa mashhur. Yetuk san’atkor hoziflarimiz bu g‘azalni jozibali kuyga solganlar va ta’sirli ijro etganlar.

Fuzuliy bu g‘azalda insondagi olijanob xislat, hamdardlik tuyg‘usini tarannum etadi. Dardmandga kim hamdard bo‘lishi mumkin? Faqat dardning azobini bilgan odam! Bir daqiqalik visolning dardmand oshiq qalbiga shifo bo‘lishini yolg‘iz hijron azobida bemor bo‘lgan odam biladi... Bu obihayotdek jonbaxsh zavq qadrini tanho yor diydoriga tashnalik qiygno‘g‘ini tortgan anglaydi. Shu bois ham:

Labing sirin kelub guftora

mandan o‘zgadan so‘rma,

Bu pinhon nuktani

bir voqifi asror o‘landan so‘r.

Ya’ni yor labining sirlarini, bu ofati jon la’larning qilmishini oshiqdan o‘zga, bu balolar joniga yog‘ilgan kimsadan o‘zga kim bilsin. Dunyoda neki pinhon sir bor, uni bilmoq bo‘lgan odam voqifi asrordan — sirlar xabardori bo‘lgan kimsadan so‘ramog‘i joizdur.

Osmon uzra sonsiz-sanoqsiz yulduzlarning sayri kimga ayon? Albatta, kechalarni g‘aflat uyusiga berilgan bedard, parvosiz, g‘ami yo‘qlarga emas, balki tungi osmonga hasrati ko‘zlarini tikib tongga qadar bedor yotganlarga ayondur. Va binobarin, osmondagi yulduzlarning oqishidek ko‘z yoshlari oqqan, yurak bag‘ri tungi osmondek tiyra bo‘lganlar ahvolini g‘ofili odamlar qayoqdan bilsin?

Ko‘zi yoshlularing holin

na bilsun mardumi g‘ofil,

Kavokib sayrini shab to

sahar bedor o‘landan so‘r.

yongan sham joniga balodur. Demak, hijron azobida bedorlikka mahkum bo‘lgan shoirming, oshiqning azoblarini sabo qaydan bilsin, bu holati shoirga g‘urbat kechasida yor bo‘lgan sham biladi, sham atrofiga uchib, o‘zini o‘tga urib kuydirgan parvona biladi:

G‘amingdan sham’tak yondim,

sabodan so‘rma ahvolim,

Bu ahvoli shabi hijron

manim-la yor o‘landan so‘r.

Oshiqning maskani — xarobot, bir laha bo‘lsa-da bu dunyo azoblarini qadah tubiga cho‘ktiruvchi — mayxona. Oshiq mayxonada olamni unutadi, qandaydir bir daqiqada yor ko‘zlari singari g‘ofilik xobiga ketadi. Haligina “Ko‘ksimga yog‘ilgan balo o‘qlaridan ko‘zlaring bexabar” deb turgan shoir yor ko‘zlariga o‘zining mastlik holati kayfitim bilan qaraydi va “Mana endi mening bu holatim mastona ko‘zlaringga ayondur, chunki dunyoni unutish lazzatini yolg‘iz dunyoni unutganlar biladi” deya xarobot ahli tilidan yozadi:

Xarobi jomi ishqam,

nargisi masting bilur holim,

Xarobot ahlining ahvolini

xummur o‘landan so‘r.

G‘azal o‘zining so‘nggi yuksak nuqtasiga keldi. Shoir barcha qilgan rozi dili sharhiga yakun yasaydi: olamda muhabbat deb atalgan buyuk va tengsiz qudrat bor. U ham azob, ham lazzat, ham qiynoq, ham huzur. Dunyoga kelib tiriklik saodatiga musharraf bo‘lgan jon, agar u muhabbat otashida yonmasa, muhabbat lazzatini bilmasa, u olamga kelmadi hisob, tiriklik baxtidan benasib. Dunyoda yashab turib tarki dunyo qilgan zohid muhabbat lazzatini qayoqdan bilsin?

Muhabbat lazzatindan bexabardir

zohidi g‘ofil,

Fuzuliy, ishq zavqin zavqi

ishqi vor o‘landan so‘r.

Erkin VOHIDOV,

O‘zbekiston xalq shoiri



NUR BOR JOYDA SOYA BOR

TARBIYADA SOBITQADAMLIK BUGUNNING TALABIDIR

Mashhur faylasuf Albert Shveyser: “Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi — ma’naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi-ko‘pmi ikkinchi darajali”, degan edi. Bugungi kunda globallashuv ma’naviyat va axloq bilan ma’naviy qashshoqlik hamda axloqsizlik o‘rtasidagi chegarani qay tarzda belgilab bermoqda? Kecha axloqsizlik sifatida qayd etilgan voqeliklarning bugun ijtimoiy axloqiy me’yorlar safiga kiritilayotgani insoniyat taraqqiyoti yo‘nalishini o‘zgartirmayaptimi?

Nazarimda, globallashuv va u bilan bog‘liq madaniyatlar uyg‘unlashuvi, qadriyatlar integratsiyasi va demokratik niqob ostida ma’naviy chegaralar buzilishi yuzaga kelayotgan turli oqibatlari bilan bugun insoniyat oldiga ko‘plab dolzarb savollarni qo‘ymoqda.

Yaqinda bir ma’lumotga ko‘zim tushib qoldi. 1981-yilda germaniyalik Marianna Baxmeyer 7 yoshli qizining umriga zomin bo‘lgan jinoyatchiga nisbatan sudning yengil jazo qo‘llayotganidan norozi bo‘lib, sud zalining o‘zida sumkasidan qurol chiqaradi va jinoyatchini otib tashlaydi. Albatta, u bu harakati bilan jamiyatda belgilangan qonunlarni juda ko‘pol ravishda buzdi, lekin o‘z axloqiy tamoyillari asosida vujudga kelgan shaxsiy qadriyatlaridan kelib chiqib, pedofilga nisbatan o‘z hukmini chiqardi va uni amalga oshirdi. Aslida, uning noroziligiga sabab mavjud qonunlar emas, balki inson omili ishtirokida shu qonunlardan jinoyatchiga imkon qadar yengil jazo tayinlash choralari ko‘rilayotgani, jinoyatini yengillashtirishga xizmat qiladigan qonun-qoidalar yondashilayotgani ayolning sud jarayonidan keskin noroziligini keltirib chiqargandi. Demak, jamiyatda huquqlar, burchlar, qoidalar tarzida belgilangan va ijtimoiy-ma’naviy muhitni qaror toptirishga xizmat qiladigan tartib-qoidalar, axloqiy tamoyillar va shaxsiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar o‘rtasida tafovut katta bo‘lmastigini hisobga olish lozim.

Ummon tomchilardan to‘plangani kabi jamiyatda har bir shaxs axloqi o‘z ijtimoiy ta’sirini namoyon etishini unutmashlik lozim. Garchi ko‘pol ko‘rinsa-da, xalqimizda “bir yomon buzoqning butun podani bulg‘ashi” to‘g‘risidagi naql bejiz yashab kelmayapti. Hatto alohida, bitta insonga tegishli axloq ham jamiyatning ichida amal qilib, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etib, ijtimoiy axloq maqomini oladi.



Shahlo AHROROVA,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

o‘smir yoshdagi bola haddan tashqari qattiqqo‘llikka isyon tarzida qasdma-qasdiga ichkilik icha boshlashi, chekishi, jinoyi to‘daga kirib ketishi yoki boshga axloqsizlikka yo‘l qo‘yib, uni o‘zi uchun to‘g‘ri deya qabul qilishi mumkin.

Shuningdek, axloqiy dilemma ham shaxsda ijtimoiy qadriyatlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy dilemma deganda, ikki muqobil yechim o‘rtasidagi ziddiyat tushuniladi. Bu ziddiyat shundan iboratki, kishi ulardan birini tanlashga mahkum, biroq har ikkisida ham qaysidir axloqiy tamoyil buzilishiga yo‘l qo‘yadi. Aytaylik, o‘quvchi sinfda kerakli bo‘lgan biror o‘quv qurolini sindirib qo‘ydi. Buni yaqin do’sti ko‘rdi. O‘qituvchi kelib, do’stidan bu qurolni



Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy axloq muhim o‘rin tutadi. Axloqning diniy omillar bilan munosabatlarini ham unutmashlik lozim. Shu o‘rinda ta’kidlamoqchimizki, bugungi kun farzandlarining axloqiy barkamolligini shakllantirishda milliy omillar uyg‘unligini e’tiborga olmoq muhim masaladir. Zero, axloqiy tamoyillar insonda bolalikdan shakllanadi.

Inson ijtimoiylashib, shaxs sifatida ijtimoiy muhitdagi aloqa va munosabatlarini amalga oshiradi. Buning oqibatida har bir jamiyatda shaxs va guruhlar ta’sirida o‘ziga xos tarzda ijtimoiy-axloqiy muhit yaratiladi. Aynan mana shu muhitni zaiflashtiradigan bir qancha muammolar bor.

Bularning birinchisi an’anaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar yemirilib yoki ta’siri kamayib borishidir. Gap shundaki, jamiyat, ayniqsa, uning yoshlar qatlami zamonaviy madaniyat sari intiladi va shu orqali turli yangi qadriyatlar bilan to‘qnash keladi. Shunga yarasha mediamahsulotlar yaratiladi va jamiyat bilan aks ta’sirga kirishadi. Yoshlar hayotiga oid qadriyatlar tizimida salbiy holatlar ham muhim halqalarga aylanib, an’anaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni siqib chiqarishi yoki ularni zaiflashtirishi mumkin.

Ikkinchidan, jamiyat ijtimoiy-axloqiy qadriyatlari bilan shaxsning xususiy axloqiy qadriyatlari o‘rtasida tafovut kelib chiqishi ham muammo sanaladi. Shaxs o‘z axloqiy qadriyatlarini yaratishda mavjud ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda oila tarbiyasida olganlari bilangina chegaralanib qolmaydi. Duch kelingan vaziyatlar tufayli sodir bo‘lgan yoki hayoti davomida o‘rganib, o‘zi uchun haqiqatga aylantirgan qadriyatlari uning faoliyati mohiyatini belgilaydi. Jamiyatda mavjud qaysidir qonunlardan norozilik shu qonunlarga qarshi bo‘lgan o‘z axloqiy harakatlarini amalga oshirishiga olib keladi. Masalan,

kim sindirganini aytishni talab qildi. O‘quvchining oldida ikki yo‘l turibdi: birinchisi — o‘qituvchisini aldamaslik, biroq do’stini sotish. Ikkinchisi esa do’stiga sodiqlik, biroq ustozga yolg‘on gapirish. Afsuski, zamonaviy ijtimoiy-madaniy omillar bugungi kun yoshlari oldiga bu kabi ko‘plab axloqiy dilemmalarni qo‘yadi.

Uchinchidan, globallashuv tufayli “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi, madaniy pliyuralizm ham mavjud ijtimoiy-ma’naviy muhita keskin ta’sirini ko‘rsatayotir. Bugungi kunda globallashuvning ulkan changalidan qutulib qolish yoki qaysidir voqelikni ajratib olishning imkoni yo‘q. Turli mamlakatlar, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ma’rifiy yoki siyosiy aloqa va munosabatlar madaniyatlar transformatsiyasiga ham sabab bo‘ladi. Aslida, bu faqat globallashuv davriga xos emas, bu davrda ayni transformatsiya va uyg‘unlashuv jarayoni kuchaydi, xolos. Buyuk ipak yo‘li asrlarida ham savdo karvonlari orqali mamlakatlarda madaniyatlar almashinuvi yuz bergani bizga tarixdan yaxshi ma’lum.

Madaniyatlar va axloq qoidalari integratsiyalashuvi ma’naviy-axloqiy madaniyatda ham aks etadi. Bu integratsiyalashuv o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Yot madaniyat va yot axloq milliy-ma’naviy tarbiya chegaralarini buzib kiradi, demak, bu chegarani mustahkamlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Aslida, kelayotgan har qanday ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ham salbiy nazar bilan qarab bo‘lmaydi. Azaldan madaniyatlar mana shunday integratsiyalashuv asosida takomillashib borgan. Xususan, Buyuk ipak yo‘li karvonlari asosan sayohat va iqtisodiy integratsiyalashuv uchun xizmat qilgan bo‘lsa-da, bunda madaniyatlar, e’tiqodlar, qarashlar almashinuvi, uyg‘unlashuvi, madaniy-ma’naviy aloqalarning o‘rnatilishi kabilar yuz bergan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy: “Balasog‘undagi so‘g‘daklar Buxoro va Samarqand orasidagi So‘g‘ddan bo‘lib, ular turklarning kiyim va odatlarini qabul qilgan”, deya ma’lumot beradi. Xitoyshunos E.G.Puleyblenk esa “So‘g‘diylar nafaqat mohir savdogar, balki mohir musavvir, hunarmand va yangi din targ‘ibotchisi ham edi. So‘g‘diylar butun Markaziy Osiyoga tarqalgan, ular Ipak yo‘li bo‘ylab joylashib, Xitoyning ichki viloyatlari hamda ko‘chmanchilari orasiga kirib bordilar. Shulardan biri so‘g‘diylarning turkiylarga sivilizatsion ta’siri edi”, deb e’tirof etgan.

Demak, mahalliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar o‘zgarmas emas, ular hamisha integratsiyalashuv ta’sirida takomillashib boradi, biroq uning milliy asoslarini qaslab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Garchi G‘arbdan me’yoriy chegaralarni bosib o‘tgan “ommaviy madaniyat” kirib kelayotganini ko‘p bora ta’kidlasak-da, ko‘plab rivojlangan davlatlar o‘z ta’lim tizimlari kuchidan aynan vatanparvarlik bilan bog‘liq axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda foydalanishini ta’kidlash lozim.

Axloqiy munosabatlar jamiyat belgilagan muayyan me’yorlar asosida amal qilib, o‘zaro ma’naviy aloqalarda namoyon bo‘ladi va subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan turli marosimlar, yuzaga kelgan urf-odat, an’analar asosini yaratadi, ijtimoiy-ma’naviy muhit tarkibidagi milliy-madaniy unsurlarni yuzaga chiqaradi. Kishilarning ma’naviy olami va xulq-atvorlari ham mana shu munosabatlarda o‘zini ko‘rsatadi.

Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Hech bir zamonda va makonda muhit va uning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar mutlaqo ma’naviy-axloqiy me’yorlar doirasida shakllanishi va amal qilishi mumkin emas. Axloq bor joyda axloqsizlik, ma’naviy yuksaklik bor joyda ma’naviy tubanlik ham bo‘lishi tayin. Bu xuddi har bor joyda soya bo‘lishi tabiiyligi, nuri bo‘lmasa, soya ham bo‘lmastigiga o‘xshaydi. Ijtimoiy-ma’naviy muhitda bu ikki qarama-qarshilik hamisha kurashib yashaydi.

Agar axloq misolida oladigan bo‘lsak, tashqi yoki ichki ta’sir, omillarga ko‘ra qayerdadir axloqsizlikning qo‘li baland kelsa, qayerdadir axloq g‘alaba qozonadi.

Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy axloq muhim o‘rin tutadi. Axloqning diniy omillar bilan munosabatlarini ham unutmashlik lozim. Shu o‘rinda ta’kidlamoqchimizki, bugungi kun farzandlarining axloqiy barkamolligini shakllantirishda milliy omillar uyg‘unligini e’tiborga olmoq muhim masaladir. Zero, axloqiy tamoyillar insonda bolalikdan shakllanadi.

Masalan, yapon ta’lim tizimida birinchidan to oltinchi sinfga qadar “axloq tomon yo‘l” dasturi asosida dars o‘tiladi. Bu darslarda yapon bolalari ijtimoiy-ma’naviy muhit yaratuvchilari sifatida faqat axloq, etiket qoidalari, odamlar bilan muomalani o‘rganadi. Janubiy Koreyada ham shunday, tarbiyaviy darslarda badiiy tarbiyaga ustuvorlik beriladi, ta’limda musiqa, tasviriy san’at darslariga keng o‘rin ajratiladi. Bu qalb tarbiyasi degani. Ularda jamiyatda ustoz degan nomning ulug‘lanishi alohida e’tiborga molik. Bu xalqda tartib-intizom qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Ko‘cha-ko‘yni toza saqlash, jamoat joyida o‘zini tutish, navbatda turish, muomala madaniyati kabi turli etik qoidalarining yuksakligi shundan ekani shubhasiz.

Demak, jamiyatdagi muhit barqarorligini ta’minlashda ta’lim omilini olsak, birinchidan, ta’lim-tarbiyada uyg‘unlik yaratish lozim, bunda milliy qadriyatlarimizdan tarbiyaning milliy asosi sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, tarbiyaga oid fanlar o‘qitilishining o‘rta va oliy ta’limdagi uzviyligini yo‘lga qo‘yish kerak. Uchinchidan, jamiyatda ustoz-muallimlarga nisbatan yuksak ehtiromni shakllantirish choralarini ko‘rish ayni muddao. Bu choralar ichiga o‘qituvchi malakasini oshirish ham, ularga moddiy sharoit yaratish, rag‘batlantirish ham, ularning huquq va sha’nlarini himoya qilish masalalari ham kiradi. To‘rtinchidan, ma’naviyat va ma’rifat markazlari va ularning bo‘limlari faoliyatini ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish kerak.

“Avesto”ga ko‘ra, oqsqoqlar kengashadigan “erkaklar uyi” bo‘lgan, bu yerda mahalla bilan bog‘liq masalalar ko‘rilgan. Shuningdek, birga ovqatlanadigan “olovxona”lar bo‘lgani ajdodlar yaxshi kun va to’y-ma’rakalarni azaldan birga o‘tkazishga moyil bo‘lganidan darak beradi. Jamoada birlashish esa jamoaviy tartib-intizom, jamoaviy axloqqa asoslangan tarbiya bo‘lishini taqozo qilgan. Jamoaviy tartib-intizom birlikni, umumfaoliyat samaradorligini ta’minlash bilan birga shunga mutanosib axloqiy qoidalarni keltirib chiqaradi. Ya’ni ilk davrlardanqo tarixiy omillar muayyan axloqiy qoidalarning manbaiy va asoschisi bo‘lib kelgan. Har qanday vaziyatda milliy ildizlardan uzilmaslik va ijtimoiy axloqda shaxs axloqi o‘rnini nazardan qochirmaslik bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanini unutmashligimiz lozim.